جدید

2025-yil 26-dekabr
№ 52 (104)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

TAVALLUD



Erkin VOHIDOV

VATAN QADRI

Chashma qoshida tiniq suv
Qadrini bilmas kishi,
Sayr etib gulshanda gulni
Ko‘ziga ilmas kishi.

Vah, bu ne g‘aflatki, inson –
Ko‘ksida tutmish Vatan,
Kim Vatan ichra Vatanning
Shukrini qilmas kishi.

Yurt nedir, yurt dog‘i nedir,
Yurtdan ayrilgan bilar,
Anglaguvchi yurt firoqin
Yurtda topilmas kishi.

Ey, vatandoshim, eshit
Bobur-u Furqat nolasin,
Besabab anduh tig‘ida
Bag‘rini tilmas kishi.

Bilma, farzandim, Vatan
Hajrini, lek qadrini bil –
Kim, Vatan qadrini bilmas,
Angla, komilmas kishi.

(4-sahifada o‘qing).

SIYOSAT



SAMMITIGA TAKLIF

AQSH prezidenti Donald Trampning Markaziy Osiyo lokomotiviga aylanayotgan O‘zbekiston Prezidentini 2026-yil Florida shtati Mayami shahrida bo‘lib o‘tadigan Katta yigirmatalik (G20) sammitiga taklif qilishi mamlakatimiz uchun xalqaro munosabatlar tarixidagi muhim voqeadir. Jahonda iqtisodiyotning 80 foizdan ortig‘ini, savdoning 75 foizini va aholining uchdan ikki qismini tashkil etuvchi davlatlarni birlashtirgan G20 sammitiga taklifnoma har qanday mamlakat uchun yuksak e’tirof sanalib, keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Geosiyosiy jihatdan bu maydon “Katta yettilik” (G7) va rivojlanayotgan yirik davlatlar (BRIKS) o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini o‘taydi. Bu yerda dunyoning turli qutblari o‘rtasidagi muloqot uchun eng qulay platforma mavjud. O‘zbekiston mintaqaning geografik va siyosiy yuragidir. Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlarining drayveri sifatida O‘zbekistonning ovozi mintaqaviy barqarorlik uchun muhim. AQSH O‘zbekistonni G20 kabi platformalarga yaqinlashtirish orqali mintaqadagi muvozanatni saqlashga harakat qiladi. AQSH uchun O‘zbekiston nafaqat Afg‘oniston masalasida, balki yangi logistika yo‘laklari (masalan, Transkaspiy yo‘lagi) yaratishda muhim sherikdir. G20 doirasidagi muloqotlar O‘zbekistonning ushbu loyihalardagi ishtirokini xalqaro miqyosda legitimlashtiradi.



Bu taklif Toshkentga dunyoning eng yirik iqtisodiyotlari bilan teng huquqli muloqot qilish, milliy manfaatlarini ilgari surish va global investitsiyalarni jalb qilish uchun noyob imkoniyat beradi. AQSHning bu boradagi tashabbusi esa O‘zbekistonning global miqyosdagi “muhim davlat” (key state) maqomiga ko‘tarilayotganidan dalolat beradi. Bu jarayon O‘zbekiston uchun ham iqtisodiy dividendlar, ham geosiyosiy xavfsizlik kafolatlarini va’da qiladi.

Donald Trampning bayonotida tinchlikka erishish va mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish muhimligi ta’kidlangani, shuningdek, ikki tomonlama munosabatlarning a’lo darajada ekanligi qayd etilgani, taklifning chuqur siyosiy va iqtisodiy zaminga ega ekanini anglatadi. O‘zbekiston uchun bu taklif bir necha jihatdan beqiyos ahamiyatga ega.

Birinchidan, bu xalqaro e’tirof va nufuzning ortishi demakdir. G20 sammiti nafaqat dunyoning eng yirik iqtisodiyotlari yetakchilari, balki mehmon davlatlar uchun ham global iqtisodiy va siyosiy kun tartibini shakllantirishda qatnashish imkoni, noyob platformadir. Sammitda ishtirok etish O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini keskin oshiradi, uning “Yangi O‘zbekiston” shiori ostida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarining xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishini bildiradi.

(Davomi 2-sahifada).

FAKT

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bugun – 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbek xalqiga Murojaatnoma yo‘llashi kutilmoqda.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2026–2030-yillarga mo‘ljallangan Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi.
- O‘zbekistonda ayollar o‘rtasida ilk marta karate WKF bo‘yicha jahon chempioni bo‘lgan Gulshan Alimardonova Prezident sovg‘asi – BYD SONG PLUS DM-i UzPride avtomobili bilan taqdirlandi.
- Farg‘ona shahridagi Prezident maktabining 11-sinf o‘quvchisi Dilafro‘z Sobirova dunyoning eng nufuzli oliy ta’lim muassasalaridan biri – Harvard universitetining “Integrative Biology” yo‘nalishiga to‘liq grant asosida qabul qilindi.

SHU SONDA:

DOLG‘ALI ASR HAQIDA G‘AROYIB ASAR



(3-sahifada o‘qing).

MILLAT FIDOYILARI



QALAMNING QUDRATI

Mohir jamoat arbobi, tarixchi, atoqli pedagog va tarjimon Said Rizo Alizoda serqirra faoliyati, ma’rifatparvarlik ruhi va o‘tkir qalami orqali Samarqand jadid matbuoti rivojiga, xalq ongi va tafakkuri uyg‘onishiga salmoqli hissa qo‘shgan ziyoli sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirdi.

(Davomi 7-sahifada).

TA’LIM VA TARAQQIYOT

(Birinchi maqola)

TA’LIM VA HAYOT UYG‘UNLIGI



Bugungi tahlikali zamonda barqaror rivojlanish va jahon maydonida raqobatdoshlikni ta’minlashning asosiy sharti – ta’lim tizimining sifat va samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish bilan bog‘liq. Zero, tashqi tahdidlar qanchalik kuchli bo‘lmasin, har bir mamlakat uchun eng katta xavf – ichki zaiflik. Jaholat, mutaassiblik, loqaydlik, mafkuraviy bo‘shliq, qadriyatlar inqirozi, ijtimoiy adolatsizlik – bularning barchasi ichki tahdidlar bo‘lib, ular jamiyatni ichdan yemirishi mumkin. Bunday tahdidlarga qarshi kurashning samarali, ta’sirchan vositasi – ma’rifat hisoblanadi.

O‘zbekiston XXI asrda – global raqobat, texnologik inqiloblar va murakkab geosiyosiy jarayonlar davrida xalqaro maydonda nufuzli mavqega ega bo‘lishi uchun yosh avlodning intellektual va ma’naviy rivojiga, jismoniy va ruhiy sog‘lomligiga jiddiy e’tibor qaratishimiz zarur. Bu masalada shunchaki deklarativ bayonotlar bilan cheklanib qolmasdan, aniq rejalarni amalga oshirish talab etiladi. Zero, ta’lim – mamlakatning strategik sohasi, kelajak taraqqiyotining kafolati.

Bugungi sharoitda ta’lim tizimi yoshlarda mustahkam ma’naviy immunitetni shakllantirish vazifasini ham bajarishi lozim.

(Davomi 5-sahifada).

JARAYON

WELCOME TO BUKHARA!

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev “Buxoroning ko‘hna va boqiy shahar, deb atalishida katta ma’no bor. Bu yerdagi qadimiy obidalar, osori-atiqalar, xalqimizning betakror qadriyatlari, beqiyos an’analari asrlar osha yashab kelmoqda. Chet elliklarning, tarixshunos va mutaxassislarning ularga qiziqishi doimo yuqori bo‘lgan”, deya ta’kidlab, viloyatda turizmni rivojlantirish bo‘yicha muhim taklif va tashabbuslarni bildirgan edi.



Darhaqiqat, asrlar davomida dunyo dagi ko‘hna ilm-ma’rifat markazlaridan bo‘lib kelgan Buxorodagi tarixiy muhitni asrab-avaylash, hududni ichki va tashqi turizm markazlaridan biriga aylantirishni zamonning o‘zi talab qilmoqda. Bu boradagi yangi islohotlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 3-oktyabr kuni mamlakatimizda turizmni izchil rivojlantirish istiqbollari, sayyohlik obyektlaridan samarali foydalanish, ko‘rsatilayotgan xizmat turlari sifatini oshirish, yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimini ko‘paytirish bo‘yicha o‘tkazilgan tahliliy yig‘ilishda belgilab berilgan edi.

(Davomi 2-sahifada).

WELCOME TO BUKHARA!

Boshlanishi 1-sahifada.

Davlatimiz rahbari joriy yil 12-avgust kuni Buxoro viloyatida islohotlar natijadorligi va yangi loyihalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi. Unda mamlakatimizda turizm infratuzilmasi yaxshilanib, yangi maskanlar tashkil etilgani, nufuzli mehmonxona brendlari yurtimizga kirib kelgani ta’kidlanib, birgina Buxoro viloyatida yillik sayyohlar soni 1 million 700 ming nafarga yetgani qayd etildi.

Viloyatga 2021-yilda 48 ming 900 nafar turist kelgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatgich 550 ming nafarga yetgani va 2023-yilda 1 million 387 ming nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgani bu natijalarga bosqichma-bosqich erishilayotganini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda yana bir muhim ma’lumot: avvallari Buxoroga kelayotgan sayyohlarning katta qismini MDH fuqarolari tashkil qilgan bo‘lsa, bugun qamrov geografiyasi kengayib, Yevropa va Amerika qit’asidan keluvchilar soni oshib bormoqda. Bu bevosita mamlakatimiz nufuzining jahon siyosiy doirasida ko‘tarilib borayotgani, dunyo xalqlarining xabardorlik ko‘rsatkichi oshayotgani bilan bog‘liq.

Buxoro viloyatining turizm salohiyatini yanada yuksaltirish, sayyohlik yo‘nalishlarini ko‘paytirish, yangi mehmonxona va mehmon uylarini tashkil etish, xizmat ko‘rsatish va servis xizmatlarini takomillashtirishda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning ham o‘rni katta bo‘lmoqda.

– Har yilgiga nisbatan ham mahalliy, ham xorijiy sayyohlar soni qariyb 2 baravarga oshganini ko‘rish mumkin, – deydi Buxoro viloyati turizm boshqarmasi o‘rinbosari Bobir To‘xsanov. – Bularning barchasi Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan nafaqat Buxoro, yurtimiz miqyosida turizm rivoji uchun munosib sharoitlar yaratilayotgani, sayyohlar uchun infratuzilma obyektlari, mehmonxonalar, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanib borayotgani samarasidir.

Har bir sohaning o‘z sir-asrorlari bo‘lgani kabi turizm yo‘nalishida ham o‘ziga xos jihatlar talaygina. Masalan, sayyohlarning mamlakatimizda qancha muddat bo‘lish davri juda muhim.

Soha mutasaddilarining ta’kidlashicha, hozirgi kunda mahalliy mehmonlarning qadim shaharda bo‘lish muddatini uzaytirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Buning uchun tizimli ishlarni amalga oshirish, xususan, ularga xizmat ko‘rsatish sifatini yuqori darajaga ko‘tarish zarur. Bu borada tarmoq faoliyatiga bevosita daxldor viloyat turizm boshqarmasi, Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi, “Hunarmand” uyushmasi viloyat hududiy bo‘linmasi kabi tashkilot va idoralar zimmasiga bir qator vazifalar yuklatilgan.

Shuningdek, Buxoroning shonli tarixi haqida batafsil va to‘g‘ri ma’lumot bera oladigan mutaxassislar va gidlar tayyorlash zarurati inobatga olinib, hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ziyorat turizmi oqimi ko‘p bo‘lgan davlatlar uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqilayotgani ahamiyatlidir.

– Sayyoh oqimini ko‘paytirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri – bu, gastronomik turizmdir, – deydi viloyat hokimi o‘rinbosari Botirjon Shahriyorov. – Bu yo‘nalishda Buxoro tajribasi asosida sharqona ko‘rinishda ta’mirlangan 50 ta restoran va yemakxonalar tashkil etishga kirishildi. Bu shoxobchalar 500 taga yaqin yangi ish o‘rnini yaratish imkonini beradi.

Shu kungacha hududda 54 ta ochiq tamaddi ayvonlari tashkil etilgan. Bu kabi tashabbuslar o‘zining bir qator ijobiy natijalarini berishi, shubhasiz. Ma’lumotlarga ko‘ra, birgina shu loyiha doirasida 1 ming 350 ta yangi ish o‘rni yaratilib, mehmonlarga yuqori darajada gastronomik xizmat ko‘rsatish boshlangan.

* * *

Joriy yilning 5-sentyabr – 20-noyabr kunlari Buxoro tarixiy markazi hududida Xalqaro zamonaviy san’at biyennalesi o‘tkazildi. Bu O‘zbekiston va jahon san’ati durdonalari, hunarmandchilik va gastronomiyasini birlashtirgan yirik madaniy dasturdir. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, xalqaro arxitektura va san’atning ilg‘or yutuqlari asosida o‘tkazilgan mazkur anjuman Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida ilk marotaba Buxoroda tashkil qilindi.

Mazkur tadbirning me’moriy yechimlarini ishlab chiqish maqsadida BAAning “WaiWai” arxitektura tashkiloti jalb qilindi. Biyennale YUNESKO hamda BAA, Fransiya, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni kabi mamlakatlarning yetakchi san’at tashkilotlari vakillaridan iborat Xalqaro kengash tomonidan boshqarildi.

Dastur doirasida san’at asarlari namoyishi, musiqa kechalari, she’riyat, kulinar performanslar, hunarmandlar master-klasslari va xalqaro anjumanlar o‘tkazildi. Tarix, san’at, madaniyat muhitini yaxshi ko‘radiganlar uchun takrorlanmas atmosfera barchani Buxoroga chorladi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Prezidenting tegishli qaroriga ko‘ra, Buxoro tarixiy markazi hududidagi 9 ta obyektda restavratsiya, ta’mirlash-tiklash va obodonlashtirish hamda ularning muhofaza hududlarida maxsus toshli qoplamalar yotqizish ishlari olib borilganini ta’kidlash zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarida ushbu tadbirga katta e’tibor berib, quyidagilarni ta’kidlagani bejiz emas:

“Muqaddas Buxoro – butun insoniyatning mulki, asrlar davomida jahon sivilizatsiyasiga mansub bo‘lgan, azaldan madaniyat, ijod va ilm-ma’rifat markazi sifatida tanilgan shahardir. Millatlar o‘rtasida hamisha ochiq muloqot ruhi hukm suruvchi ayni maskanda madaniy merosning qadriga yetadigan, uni asrab-avaylaydigan ziyolilar yig‘ilgani – tabiiy voqelik.

Masjid gumbazlaridan to ipak gilamlargacha, zardo‘zlik namunalaridan to miniatyura san’atigacha, yog‘och o‘ymakorligidan to shashmaqom musiqasigacha – bebaho xazinamiz ko‘plab avlodlar mahorati va iqtidorini o‘zida mujassam etgan. Bugun madaniyat biz uchun nafaqat go‘zallik va ilhom manbayi, balki xalqaro nufuzimizni oshiradigan hamda mamlakatimizning global makondagi qiyofasini shakllantiradigan strategik resurs hamdir”.

Turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar kelgusida ham izchil davom etib, mamlakatimizning barcha hududlari kabi ko‘hna va navqiron Buxoroga ham sayyohlarni jalb qilaveradi.

Zarnigor IBROHIMOVA



SAMMITIGA TAKLIF

Boshlanishi 1-sahifada.

Ikkinchidan, bu taklif O‘zbekiston uchun global muloqot imkoniyatidir. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev dunyoning eng qudratli davlatlari rahbarlari bilan bir dasturxon atrofida o‘tirib, bevosita muloqot olib borish, mamlakat manfaatlarini himoya qilish, xalqaro muammolarga o‘z munosabatini bildirish va hamkorlik uchun yangi yo‘nalishlarni belgilash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu nafaqat ikki tomonlama, balki ko‘p tomonlama munosabatlarni ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, bu investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish fursati degani. G20 sammitida ishtirok etish O‘zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlaydi va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi. Dunyoning eng yirik investorlari va biznes vakillari e’tiborini O‘zbekistonga qaratish, mamlakatning ochiqlik siyosati, iqtisodiy salohiyati va investitsiya muhitidagi ijobiy o‘zgarishlarni namoyish etish uchun muhim imkoniyat yaratiladi.

To‘rtinchidan, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikning faol tashabbuskori sifatida O‘zbekistonning G20 ga taklif etilishi, uning mintaqadagi yetakchilik pozitsiyasini yanada mustahkamlaydi.

Bu mintaqaviy loyihalar va tashabbuslarga xalqaro e’tiborni jalb qilish, shuningdek, Markaziy Osiyoning global jarayonlardagi o‘rnini oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, diplomatik imkoniyatlar kengayadi. G20 sammiti doirasida ko‘plab ikki tomonlama uchrashuvlar va muzokaralar o‘tkazish imkoniyati tug‘iladi. Bu esa O‘zbekistonning tashqi siyosatida yangi yo‘nalishlarni ochish, mavjud hamkorlik aloqalarini chuqurlashtirish va global muammolar bo‘yicha konsensusga erishishga yordam beradi.

Oltinchidan, kuchlar muvozanati siyosatining samaradorligini ta’minlaydi. O‘zbekistonning Rossiya va Xitoy kabi an’anaviy hamkorlar bilan aloqalarini chuqurlashtirish barobarida, AQSH va Yevropa Ittifoqi bilan ham faol munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan “ko‘p vektorli” tashqi siyosatining samaradorligini isbotlaydi. Bunday yondashuv mamlakatga xalqaro munosabatlarda mustaqil va qadrli ishtirokchi sifatida pozitsiyasini mustahkamlash imkonini beradi.

AQSH O‘zbekiston mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab mamlakatning suvereniteti va hududiy yaxlitligini qo‘llab-quvvatlab kelgan muhim strategik hamkor hisoblanadi. So‘nggi yillarda, ayniqsa Shavkat Mirziyoyev rahbarligida, ikki tomonlama munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarildi.

Mayamidagi bo‘lg‘usi G20 sammiti O‘zbekiston uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib, uning xalqaro sahnadagi faol va ishonchli ishtirokchi sifatida yanada mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Jamoliddin BADALOV

MUNOSABAT

BIR-BIRIGA DAXLDOR



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi “Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, turizm va ekologiya qo‘mitalari nomi ostida alohida davlat organlari tashkil etildi. Galdagi vazifa mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va har ikki sohani uyg‘unlikda rivojlantirishdir.

Ma’lumki, keyingi yillarda olib borilayotgan izchil siyosat barcha sohalarda o‘z samarasini bera boshladi. Jumladan, 2025-yilning aprel oyidan boshlab, O‘zbekiston tarixida ilk bor xorijiy sayyohlarning kelishi har oyda bir milliondan oshishi kuzatildi. Umuman, shu yili yurtimiz turizm bo‘yicha o‘z rekordini o‘rnatdi va mamlakat iqtisodiga qariyb besh milliard dollar daromad keltirdi.

Albatta, sayyohlar oqimining ortishi va turistik taklif-larning xilma-xillashuvi sohaning mintaqaviy doiradan chiqayotganini ko‘rsatadi. Bugungi kunga kelib, zamonaviy dizaynga ega mehmonxonalar, sayohat kompaniyalari, soha mutaxassislari soni sezilarli darajada ko‘paydi. Bugun faqat diqqatga sazovor shaharlarimiz yoki tarixiy maskanlarimiz emas, ekologik va gastronomik turizmga ham xalqaro qiziqish orta boshladi.

– 2025-yilning yanvar – noyabr oylarida turizm sohasida keng ko‘lamli barqaror o‘sish sur’atlari qayd etildi, – deydi O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi Yig‘ma axborot-tahlil, statistika, strategik rejalashtirish va metodologiya boshqarmasi boshlig‘i Oybek Hakimov. – O‘tayotgan yilning o‘n bir oyi davomida O‘zbekistonga 10,7 million nafar xorijiy sayyoh keldi va o‘sish sur’ati 114 foizga yetdi.

Ayniqsa, 2024-yilning mos davriga nisbatan Xitoy Xalq Respublikasidan 3,7, Avstraliya va Yaponiyadan 1,5, Fransiya va Kanadadan 1,3, AQSH, Ispaniya, Turkiya, Polsha, Niderlandiya, Malayziya va Hindiston davlatlaridan 1,2, Germaniya, Italiya va Janubiy Koreyadan 1,1 barobarga ko‘p sayyoh kutib oldik.

Bundan tashqari, ichki turizm bo‘yicha ham “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida aholining hududlardagi diqqatga sazovor maskanlarga 23.7 million marta tashrifi amalga oshirildi.

Hududlarda 128 ta mehmonxona, 506 ta oilaviy mehmon uylari, 268 ta xostel va 52 ta boshqa turdagi sayyohlarni joylashtirish obyektlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, turistlar uchun xizmat ko‘rsatuvchi 662 ta yangi turistik tashkilot va turagentlar ishga tushib, ularning umumiy soni 4348 taga ko‘paydi.

Aytish mumkinki, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi sayyohlik imiji juda faol targ‘ib etildi. Ayni paytda, 4345 nafar gid-ekskursovod xizmat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, ularning 375 nafari yanvar-noyabr oylarining o‘zida tayyorlandi.

Bundan tashqari, 2025-yil “Xitoyda O‘zbekiston turizmi yili” deb rasman e’lon qilinishi munosabati bilan ko‘plab madaniy va reklama tadbirlari o‘tkazildi. Yigirmadan oshiq xorijiy davlatda “Road show” tadbirlari tashkil etildi, 15 ta xorijiy yirik media platformaga mamlakatimizning sayyohlik salohiyatiga oid kontentlar joylashtirildi. Investitsiya sohasida 421 ta loyihani amalga oshirdik. Turizm yo‘nalishida 6313 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Toshkentda JW Marriott, Swissôtel, Azimut brendlari ostida mehmonxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Hududlarda ham yangi turizm qishloqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyatida uch yirik turizm klasteri ishga tushdi.

Soha raqamlashtirilib, milliy turizm yagona platformasi ishlab chiqilyapti. Unga elektron viza berish, chipta olish jarayonlari ham ulanadi. Shuningdek, barcha tarixiy obidalarga kirish imkonini beradigan “yagona turistik karta” joriy qilinadi.

Turizm xizmati eksportini ko‘paytirish mamlakat iqtisodiyotining muhim drayveriga aylanayotganini hisobga olgan holda, uning boshqaruvida institutsional islohotlarning amalga oshirilishi yanada keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Xalq diplomatiyasi va mamlakat imijining xalqaro darajada yuksalishi turizm, turizm esa ekologiya bilan chambarchas bog‘liq. Shu jihatdan, ekologiya va turizmni sohasiga ko‘ra ajratish, aslida, biriga ikkinchisining mas’uliyatini oshirishdir.

Insoniyat hamisha abadiyatga do‘ngan tarixiy maskanlar bilan bir qatorda, toza tabiiy muhit va manzarali joylarga intilgan. Qayerdaki, havo toza, tabiat chiroyli va suv shirin bo‘lsa, u joyga qiziqish ortadi. Shu jihatdan, mintaqada tabiatga e’tiborsizlik turizm rivojiga putur yetkazadi, ekologik noxushlik bu joyning nufuziga salbiy ta’sir qiladi.

Prezidentimizning “Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi mustaqil tashkilot sifatida faoliyat boshlashi soha vakillari zimmasiga yanada muhimroq vazifalarni yuklaydi.

Farmonga ko‘ra, ekologiya va turizm bo‘yicha aholi murojaatlarining yagona platformasi yaratiladi. Murojaatlarni qabul qilish va ularga tezkor javob berish jarayoni raqamlashtiriladi, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida statistika yuritiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad atrof-muhitni muhofaza qilish hamda turizm sohasida belgilangan vazifalarni tezkor va yangicha yondashuv asosida tashkil etishdir.

– O‘zbekistonda ekologiya sohasi endilikda tezkor boshqaruv tizimiga ega bo‘ldi. Shu bilan birga, mamlakat rahbariga to‘g‘ridan to‘g‘ri hisob beruvchi mustaqil tashkilotga aylandi, – deydi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi bosh mutaxassisi Murod Nurmatov. – Bu, albatta, byurokratik to‘siqlarning keskin qisqarishiga olib keladi, chiqindi to‘planishi, havo ifloslanishi, daraxtlarning kesilishi singari ekologik muammolarga kundalik rejimda javob berish imkonini beradi.

Ekologiya sohasida boshqaruvni takomillashtirish uchun bir qancha chora-tadbirlar rejalashtirilgan. Jumladan, “Chiqindidan xoli hudud”, “Toza havo”, “Eko-madaniyat”, “Bio meros” kabi umummilliy loyihalar amalga oshiriladi. 15 nafargacha xorijiy va mahalliy ekspertni fuqaroviy-huquqiy shartnomalar asosida jalb qilgan holda, Qo‘mita huzurida “Ekoloyihalar fabrikasi” faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

2028-yilga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida qo‘shimcha ravishda maydoni 100 gektardan kam bo‘lmagan botanika va dendrologiya bog‘lari tashkil etiladi. Atrof-muhitga nazorat kuchaytirilib, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va bu boradagi huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo‘lgan maxsus bo‘linma – Ekopolitsiya, ya’ni Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi tuziladi.

Bir so‘z bilan aytganda, Ekologiya qo‘mitasi o‘rmonlarni ko‘paytirish, global iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va cho‘llanishga qarshi kurashish sohalarida yagona davlat siyosati va nazoratini amalga oshirishuvchi vakolatli organ vazifasini o‘z zimmasiga oladi.

Darhaqiqat, ekologik madaniyatni rivojlantirish, “Yashil iqtisodiyot” tamoyillarini hayotga tatbiq qilishning o‘zi bilangina ish bitmaydi. Atrof-muhit muhofazasi uchun javobgarlikni har bir inson his qilishi shart. Ushbu farmon ortidan ekologik nazoratning shaffofligi oshadi. Shuningdek, mustaqil boshqaruv tizimi orqali aholi murojaatlari, tashabbus va shikoyatlari e’tiborsiz qolishiga chek qo‘yiladi. Xulosa qilib aytganda, ushbu farmon ekologik siyosat va turizm sohalari rivojlanishining yangi bosqichini boshlab beradi.


Muhayyo RUSTAMOVA



“Ahvoling yomon bo‘lganda, tabiatga quloq tut. Dunyoning sokinligi millionlab keraksiz so‘zlardan ko‘ra yaxshiroq taskin beradi.

KONFUTSIY

MUTOLAADAN SO‘NG



DOLG‘ALI ASR HAQIDA G‘AROYIB ASAR

“Yaldo kechasi” tarixiy romani xususida

HAVAS VA JASORAT

21-dekabr eng uzun tun kuzatiladigan sana. Joriy yilda ushbu kun adabiyot taqvimiga ham uzoq kutilgan asarning tavalludi o‘laroq qayd etildi. Ikkisini birlashtirib turadigan jihat nomi va ramzidir – Yaldo kechasi. Shu kuni yakshanba bo‘lsa ham, havo harorati keskin tushib ketganiga qaramay, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondining yangi majlislar tolori millatimiz oydinlari bilan gavjum bo‘ldi. Boisi, avvalo, “O‘tkan kunlar”ga ilova” tarzida taqdim etilgan “Yaldo kechasi” tarixiy ro‘monining muallifi sir tutilgani, bunday muhtasham asarni Qodiriy nomidan, Qodiriy bo‘lib kim yozishi mumkinligi ko‘pchilikning qiziqishiga sabab bo‘ldi. Qolaversa, so‘z va kitob shaydolari ko‘pdan beri bunday mashvaratlarni sog‘ingan, ayni taqdimot esa, ustozlar ta’biri bilan aytganda, “davra oybekona sha’n edi”.

Anjuman uchun tanlangan manzil ham chuqur ramziy ma’noga ega. Shahidlar xotirasi maydoni hamda Qatag‘on qurbonlari davlat muzeyining mahzun, sokin va ayni vaqtda ulug‘vor ruhi taqdimot kayfiyatiga ham bevosita ta’sir qildi. Umuman, ushbu ro‘mon ham, taqdimot ham ramzlarga boy bo‘ldi.

Anjuman yuksak hayajon va orziqish bilan boshlandi. Davrani taniqli navoiyshunos Olimjon Davlatov olib bordi. Yangi asar haqida Shuhrat Sirojiddinov, Shuhrat Rizayev, Sirojiddin Sayyid, Nurboy Jabbor, Bahodir Karim, Xondamir Qodiriy ma’ruza qildi. Zebo Mirzo asar mohiyatiga teran kirishga imkon beruvchi otashin she’rini taqdim qildi.

Kutilgan daqiqalar keldi. Taqdimot yakunida so‘z, kitobda qayd etilganidek, “tarixiy hujjatlar asosidagi badiiy to‘qima muallifi” Xayriddin Sultonga berildi. U kishi kitob muqovasiga bejiz muallif ism-sharifi bitilmaganiga izoh bera turib: “Bu kitob aslida bundan yuz-yuz ellik yillar muqaddam yozilgan edi. Uni millatning vijdoni pok, iymoni butun farzandlari ajdaho komida turib, yurak qoni bilan bitib ketgan edilar. ...Nihoyat, minglab manbalar qatida tariqdek sochilib yotgan, davrlar shamolida to‘zg‘iy boshlagan ana shu ulug‘ kitob varaqlarini zehniyat ko‘zgusidan o‘tkazib, ularni bir muqova ostida mujassam etish fikri, aniqrog‘i, ehtiyoji paydo bo‘ldi. Taqdir taqozosi bilan bu yumushni ado etish kamina xodimingiz zimmasiga tushdi.

...O‘zim uchun bir umr ma’naviy pir deb bilganim Abdulla Qodiriy hazratlarining ta’biri bilan aytkanda, “havasimda jasorat his etdim, havaskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho‘chib turmadim”.

Ushbu havas va jur’at samarasi haqida ro‘monga mas’ul muharrirlik qilgan O‘zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos Ibrohim G‘afurovning fikr-mulohazalarini gazetamiz orqali Siz, azizlarga yetkazishga qaror qildik.

* * *

Gazeta sahifalanish jarayonida xushxabar oldik: Ibrohim G‘afurov Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot tanlovining “Xorijiy tillarda yaratilgan nasriy asarlardan o‘zbek tiliga tarjima” yo‘nalishida Fyodor Dostoyevskiyning “Aka-uka Karamozovlar” romani tarjimasi uchun taqdirlanibdi.


Ish jarayonida ustozga qo‘ng‘iroq qilib, bog‘landik:

– Prezidentimiz 2024-yil miyonasida “Badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etish to‘g‘risida”gi Qarorni imzolaganlarida ko‘zimga yosh kelgandi. Chunki so‘nggi vaqtlarda tarjima sohasi biroz oqsayotgani bor gap. Qolaversa, tarjimachilik tor soha, buning mashaqqatini men yaxshi bilaman. Davlatimiz rahbari adabiyotga katta e’tibor berar ekan, ushbu sohani ham befarq qoldirmaganlari kishiga kuch-quvvat va kayfiyat bag‘ishlaydi. Ayniqsa, Tohir Qahhor, Abdulla Sher kabi yirik tarjimonlarning taqdirlanishi, ular safida yoshlarga o‘rin berilgani avlodlar robitasini mustahkamlaydi, yangi avlodga bugungi ifodada aytganda motivatsiya beradi. Endi bu mukofot loyihasining chuqur o‘ylanganini qarangki, nafaqat chet tillaridan o‘zbekchaga, balki o‘zbek tilidan xorij tillariga qilingan tarjima mualliflari ham taqdirlanyapti. Bu bevosita o‘zbek adabiyoti va jahon o‘quvchilari o‘rtasida ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Mukofot jamg‘armasi ham juda havas qilarli darajada belgilab qo‘yilgan. Ma’naviy va moddiy rag‘bat kelgusida tarjimachilikka qiziqish ortishiga, tarjimalarning sifati ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Bu hayajon faqat taqdirlanganimiz uchun emas, shu sohaga berilayotgan e’tibor mahsulidir. Qolaversa, ulug‘ ajdodimiz Ogahiy hazratning ham ruhlari shod bo‘lib, nurli siymosi yangi avlod tarjimonlariga fayz bag‘ishlab turadi.

Samimiyatga yo‘g‘rilgan izhorni tinglab, biz ham ta’sirlandik. San’atimiz arbobini kitobxonlar, adabiyotsevarlar, ustozdan bevosita va bilvosita saboq olgan shogirdlar, mushtariylarimiz hamda tahririyatimiz nomidan muborakbod etdik.

Serg‘ayrat ustozimizga sog‘lik-salomatlik tilagan holda yangi maqolalarini chop etishdan baxtiyormiz.

TAHRIRIYAT



Ibrohim G‘AFUROV,
O‘zbekiston Qahramoni

To‘rt yuz-u yetmish ikki sahifadan iborat bu kutilmagan asar qo‘lyozmasini 2024-yilning ilk haftasida o‘qib chiqishga muyassar bo‘ldim. Ko‘p kitoblarga oshno-do‘st bo‘lgan edim, lekin bu gal dastlabki sahifalardanoq hayratim ziyoda bo‘ldi. Uning “Yaldo kechasi” deb atalishi ham, tagiga “Abdulla Qodiriy qalamiga mansub, “O‘tkan kunlar”ning ikkinchi kitobi deb taxmin qilinayotgan qo‘lyozma” deb izohlangani ham, “Maxfiy” deb atalgan kirish so‘zi ham, unda bayon etilgan sir-sinoatga to‘la tushuntirishlar ham – barchasi o‘quvchining taajjublarini haddan ortiq oshirgandan oshirardi.

Kirish so‘zidan 1937-yilning 31-dekabr kechasidagi mash’um tintuv paytida Abdulla Qodiriy bilan birga, uning xonadonidan olib ketilgan, adibning shaxsiy mulkiga doir qimmatli ashyolar orasida, 2060 varaqdan iborat qo‘lyozma ham bo‘lganidan xabar topdik. Mazkur So‘zboshida yozilishicha, mustaqillik yillarida tuzilgan, ushbu toqat qilib bo‘lmaydigan zo‘ravonlik va qaroqchilarga xos tintuv tarixini o‘rgangan maxsus komissiya bu asarni sobiq Markazning maxfiy hujjatgohlaridan birida, Qodiriyning emas, balki o‘sha zamonlar siyosiy arboblaridan bo‘lmish Qurbon Beregin-ning “jinoyat ishi” ichidan topgani bayon etiladi.

Qo‘lyozma qanday qilib bu hujjatlar orasiga tushib qolgani haqida hech qanday ma’lumot yo‘q. Ehtimol, Bereginga o‘qib, baho berish uchun topshirilgandir? Qo‘lyozmaning Qodiriyga mansub asar ekanligi aniq bo‘lsa ham, lekin unga muallif nomi qo‘yilmagan ekan. Shundan “taxmin qilinayotgan” degan ibora tug‘ilgan.

“Yaldo kechasi” matnida Abdulla Qodiriyga nisbat berilgan “Yozg‘uchidan” deb nomlangan debocha so‘z ham keltirilgan. Va, unda adib millionlagan ixlosmandlarning o‘tinch va iltijolarini hisobga olib, “O‘tkan kunlar”ning ikkinchi kitobini yozishga qaror berganini ma’lum qiladi.

Ta’kidlash joizki, bu gaplar “Yaldo kechasi”-ning men bundan qariyb bir yil avval o‘qigan ilk nusxasida bitilgan edi. Shundan so‘ng o‘tgan vaqt davomida mana shu So‘zboshining bir-biridan tubdan farq qiladigan uchta varianti yaratilganiga, roman matni qanday sayqal topib borganiga guvoh bo‘ldim.

Shunday muqaddimalardan keyin roman-ning Birinchi bo‘limi keladi, u “Piri siddiq. Ikki g‘arib” deb ataladi. Dastlabki jumla “Hijriy 1268-yil, saraton” deb boshlanayotganining o‘ziyoq darhol o‘quvchilarga “O‘tkan kunlar”dagi “1264-inchi hijriya, dalv oyining o‘n yettinchisi” degan jumlani eslatadi. O‘quvchi har ikki kitob o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik borligini sezadi. Bunday bog‘liqlik va unsiyat barcha hollarda badiiyatning yozilgan-yozilmagan qonuniyatlari va talablariga ko‘ra g‘oyatda muayyan va o‘quvchini lol qoldiradigan daraja va san’atkorona komillikda yaqqol ko‘rinadi.

Albatta, mushtariylarimiz yuqoridagi qis-qacha tushuntirib bo‘lmaydigan so‘zlardan suyukli adibimiz Xayriddin Sulton adabiy mistifikatsiyadan foydalanib, yangi asar bit-ganini fahmlab yetgandirlar, deb ishonaman.

U “O‘tkan kunlar”ning Ikkinchi kitobini yozib tugatdi. Bu kitobni u buyuk Qodiriy nomidan yozdi; Qodiriy bo‘lib yozdi; qattol zamon Qodiriyning qo‘lini kishanlab, unga yozish uchun imkon bermaganligi bois fozil izdosh va uvays shogird sifatida yozdi. Hech kimning xayoliga kelmagan fantastik bir orzuni ro‘yobga chiqardi.

Zukko kitobxonlarga ayonki, Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani adibning qisqagina “Yozg‘uchidan” degan so‘zlari bilan yakun topgan edi. Unda muallif Yusufbek hojining nabirasi Yodgorbek XX asrning o‘n to‘qqizin-chi–yigirmanchi yillarida, ochlik zamonlarida vafot qilgani, undan ikki o‘g‘il farzand qolgani – ularning biri sho‘ro hukumatida mas’ul ishchi, ikkinchisi esa bosmachilar orasida ekanini ma’lum qilib o‘tgan edi.

Xayriddin Sulton mumtoz adibimiz kelib to‘xtagan mana shu joydan uning tabarruk qalamini qo‘lga olishga jazm etadi va o‘zida misli sizbir azm-u qaror, jiddu jahdni otlantiradi.

Ochiqdan ochiq yozadigan bo‘lsak, u endi Otabekning zurriyodlari – Yodgorbek va uning ikki mard farzandi taqdirini badiiy vositalar bilan yoritish va ifoda etishga bel bog‘laydi.

Aziz o‘quvchilarimiz yaxshi biladilarki, “O‘tkan kunlar” xalqimizning eng sevimli romani, uning qahramonlari el-yurt qalbining to‘ridan joy olgan, bir asrdan ortiq vaqt mobaynida yangi-yangi avlodlarni so‘nmas bir ma’naviy ruh bilan tarbiyalab keladi. Romanga qaragan kishi xuddiki oyinaga qaraganday o‘z qiyofasini ko‘radi. O‘zini buyuk madaniy tarixga ega bo‘lgan xalq kabi his qiladi. Ma’nolar o‘qiydi, kelajagiga umid va ishonch bilan boqadi.

Zamonlar evrilib, Yusufbek hoji, Otabek va Kumush zurriyodlarining taqdirlari qanday kechdi? Bu avlodlar mustamlakachilik g‘olib bo‘lgan dunyoda – urushlar, ocharchiliklar, aybsiz kishilar ustidan avj oladigan tazyiq va zo‘ravonlik, misli ko‘rilmagan haqsizliklar, abgorlik, qashshoqliklar yopirilgan XX asrda qay hollarga tushadilar? Chumolidek uvol bo‘lib ketadilarmi yo aql bovar qilmas jang maydonlarida o‘z insonlik erklari, sha’n-shav-katlarini himoya qilib chiqadilarmi, adolatga erishadilarmi?

Xayriddin Sulton Yodgorbek, uning farzandlari – Ozodbek va Odilbek timsolida erkin inson qadri, haq-huquqlari, el-yurt ozodligi yo‘lida qanday otashin kurashchiga, ortga qaytmas ma’rifatchiga aylanganliklarini tadrijma-tadrij, evolyutsion ijodkorlikda tasvirlab, hikoya qilib beradi. Ularga Qodiriy va hurriyatparvar jadid namoyandalarning izdoshlari, ularning kurashlarini davom ettiruvchi shaxslar, deb qaraydi. O‘quvchi uchun qorong‘i bo‘lib kelayotgan vaqt hamda makonlarni tafakkur va badiiyat yog‘dusi bilan yoritadi.

Yodgorbek ajdodlarining olijanob intilish-larini, xalq ozodligi, adolat va ma’rifat jabhasidagi ulug‘ sa’y-harakatlarini butun jism-u jonida tuyadi, gazeta chiqaradi, jaholat g‘ovlab ketgan bir muhitda o‘g‘il va qiz bolalar uchun maktab ochadi. Har bir qadamida el-yurt uchun qayg‘uradi, jonini hurlik uchun tikadi, beqiyos matonatli va mard kurashchi bo‘lib maydonga chiqadi. O‘g‘illari Ozodbek va Odilbek undan ulgi va o‘rnak oladilar. Ularda yurtparvarlik, elsevarlik fazilati mujassam va qat’iy bir tus oladi.

Yodgorbek Yusufbek hojidan qolgan mol-mulklarni sotib, pulini “Najot” deb nomlangan maktab qurish, milliy jarida chiqarishga sarf qiladi. Va mana shunday ezgu faoliyati uchun mustabid tuzum tomonidan Sibirga badarg‘a qilinib, og‘ir uqubatlar ichida halok bo‘ladi. Farzandlari ham bosqinchilar zulmiga qarshi omonsiz jangchiga aylanadilar. Ularning taqdirlari ham qonli fojialar ichida tugaydi. Ozodbek va Odilbek sho‘ro istibdodiga qarshi hayot-mamot janglarida aziz jonlarini fido etadilar.

Qizil va oq terror zamonlari yozuvchining o‘tkir nigohidan birma-bir o‘tadi, fojiali, mudhish tafsilotlar charxning qora quyunlari kabi aylanadi. Har qadamda talafot, har nafasda ofat, zulm-u zulmat o‘z vahshiy hukmida sobit. O‘zini “tarixiy hujjatlar asosidagi badiiy to‘qima muallifi” deb atagan yozuvchi Xayriddin Sulton alg‘ov-dalg‘ov zamon po‘rtanalarini sinchiklab kuzatadi, murakkab voqelikni nazaridan qochirmay, chuqur badiiy tahlil qilib boradi.

Yodgorbek, Ozodbek va Odilbek o‘z kurash-larida Ismoil G‘asprali va Nusratxon domla kabi ulug‘ ma’rifatparvar zotlarga, jonkuyar, fidokor, el-ulus ishiga sadoqatli olijanob muallimlarga, noshir va muharrirlarga, ilm va din ahllariga suyanadilar. Bu qahramonlarning hayot yo‘llarida Zumrad bibi, Oynisa, Suyima, Zaynab va Rizvon singari olijanob, vafodor ayollar ilhomchi va madadkor bo‘lib turadilar. Ularning sof o‘zbekona obrazlari g‘oyat suyukli va jozibadordir.

Romanda yovuz, makkor va munofiq kuchlarga qarshi ajoyib el farzandlari, imon-e’tiqodli kishilar faol harakatda bo‘ladi, ularning maftunkor siymolari o‘quvchi qalbini zabt etadi, muhabbatini qozonadi.

Qodiriyning “O‘tkan kunlar”i ruhi va uslubida yozilgan bu roman mumtoz asarimizning badiiy tili, tasvir vositalarini yangi yo‘nalishda davom ettiradi. Yozuvchi o‘zining barcha intilishlari, izlanishlari, ijodiy hujayralari bilan Qodiriy kashfiyotlariga hamohanglik yaratadi. Hamohanglik taqlid emas, aslo. Balki Qodiriy tirik bo‘lsa, qo‘llashi ehtimoldan uzoq bo‘lmagan yangi yozuv usuli va badiiy mantig‘idir. Shularning hammasi “Yaldo kechasi”ni juda o‘qishli, har jihatdan yangi zamon kitobxoni uchun qiziqarli qiladi va o‘ziga ohanrabodek tortadi.

Men o‘tgan yil mobaynida asar to‘g‘risida muallif bilan ko‘p bor ijodiy muloqot qilganim hamda “Xaybar–25” nashriyoti iltimosiga ko‘ra, ushbu kitobning mas’ul muharriri sifatida uning yuzaga chiqishiga kamtarona hissa qo‘shganimdan baxtiyorman.

“Yaldo kechasi”ni yangi zamon o‘zbek adabiyotida tamomila kashfiyot, desa arzigu-likdir. Xayriddin Sultonning ushbu adabiy mistifikatsiyasi tarixiy, insoniy, zamoniy haqi-qatlarni yangicha ochgani, ularga kuchli urg‘u bergani bilan e’tiborga sazovor.

Bu g‘oyat salmoqli asar dolg‘ali asrlarda xalqimiz boshiga tushgan mislsiz ijtimoiy zulm, milliy qashshoqlik, ojizlik tufayli tug‘ilgan behad ayanchli og‘riqlar, dard-alam, armonlarimizdan nihoyat qutulganimiz, qutulayotganimizni anglatadi. Bunday g‘amboda og‘riqlar yuz yillarcha davom etar ekan, fojiali tomoni shundaki, umummiqyosda xalqning o‘ziga bo‘lgan ishonchini barbod etishi, jasoratini zaharlashi, g‘ayratini mahv etishi mumkin. Burgutlardan chumchuqlar, arslonlardan manfur shoqollar urchishi mumkin.

“O‘tkan kunlar” va uning mantiqiy davomi – kurash dostoni bo‘lgan “Yaldo kechasi” har qanday og‘ir sharoitda ham manqurtlashmagan shaxslar uchun haqiqiy tozarish ummoni vazifasini bajaradi. Buni qadimgilar “katarsis” deyishgan. Shekspir tragediyalari jamiki inglizlar uchun ana shunday katta miqyosdagi katarsis bo‘lgan, jamiyatni tozalab, ulusni jahonshumul millatga aylantirgan.

“Yaldo kechasi”dagi bosh qahramonlar millatning erkparvar vakillari sifatida, millat oydinlari sifatida tozarish okeaniga tusha-dilar. “Millat vakili” degan ozod so‘z, ozod tushuncha, ozod tuyg‘uli inson paydo bo‘ladi. Bu asr romanida millat mana shunday qah-ramon yaratishga qodir ekani tasvirlanadi. Unda katta davrlar qamralgan. Barcha ijtimoiy salmoqli hodisalar aksini topgan. Yodgorbek, Ozodbek, Odilbek, Nusratxon to‘ra, Maqsud ponsad, Haydar Burhonlar ulug‘ Qodiriy orzusidagi buyuk va matonatli kurashchilardir.

Asarni hayajonlar ichra o‘qib, qalbimda hosil bo‘lgan taassurotlarning bir shingili ana shu.

Tabiat – ajib dunyo. Yaldo kechalari shun-day ulug‘ samoviy hodisalar yuz beradi.

21.12.2025





ABADIYAT ORALAB...

O‘ZBEGIMNING SO‘Z ZARGARI

Xalqimizning ardoqli shoiri Erkin Vohidov inson qalbini, tili va dilini teran bilgichi bo‘lgan ulug‘ ijodkordir. Chin shoirlik – yuksak martaba, komillik darajasiga yetishmak, demak. Uning yuksak she’riyati qalblarni zavqlantiradi, ruhni yuksaltirib, tasavvurlarni ravshan qiladi. Bu she’rlarda surur va dard, zavq va iztirob, safo va jafo uyg‘unlashadi.

Ruhi baland, qalbi toshqin, bilimi daryo insonning inja tuyg‘ulari aks etadi bu she’rlarda. Bu tuyg‘uni, she’r kayfiyati va iztirobini anglaydigan, donishmand el orasidan “so‘z durlari”ni saralab topgan shoir shunday ifodalaydi:

El – ustozim, men esa – tolib,
So‘z durlarin termoqdir ishim.
Odamlarning o‘zidan olib,
Odamlarga bermoqdir ishim.

Kutilmagan lutf va latiflik, tub o‘zakdan inja ma’no chiqarish, o‘zaro ohangdosh so‘zlardan betakror satrlar tuzish Erkin Vohidov adabiy merosining yetakchi fazilatlaridan biri sanaladi.

To tirikdirki tabiat,
To quyosh sochgayki nur,
Uch egiz bordir tushuncha,
Uch bu so‘z yondosh bo‘lur:
Mohir-u mehr-u mahorat,
Olim-u ilm-u amal,
Oshiq-u ishq-u mashaqqat,
Shoir-u she’r-u shuur.

Bir o‘zak masdardan bir nechta so‘zlarning yasalishi flektiv oilaga mansub tillarning bosh xususiyatidir. O‘zbek tilining lug‘at boyligi tarkibiga kirgan arabiy so‘zlarda shunday hodisa kuzatiladi. Ilm va olim, oshiq va ishq, shoir va she’r bitta o‘zak hosilalaridir. O‘zbek adabiy tilida ularning o‘zaro yaqinligiga ko‘p ham e’tibor berilmaydi. So‘zlar aro poetik qarinaga – badiiy yaqinlikka, ohang-ritm va rangga shoirlar diqqat qaratadi.

Shoirlar odamlar orasidan so‘z izlaydi va bu so‘zlarni tiriltiradi. Erkin Vohidov nazdida: “Xalq tilining toza bulog‘iga yuragini ochib qo‘ymagan ijodkorning ko‘lmakka aylanib qolishi tabiiy”dir.

Yana muhim bir jihat shuki, shoirlar kamalakdan – olamning turfa ranglari jilosidan zavq oladi. Ranglar shoirlarga ilhom beradi. Shoirlargina “rang so‘zining ranginligi” haqida yozadi. Kerak bo‘lsa, savol tashlab, sizni imtihon ham qiladi: “Xo‘sh, guli ra’noning rangi qanday?” – Bir tomoni qizil, bir tomoni sariq. “Yana bir savol. Yonib turgan olovda nechta rang bor?” – Yonib turgan olovda qizil, yashil sariq ranglar uyg‘unligi bor. Oshiq ohining alangasi – “shu’layi ohi” qizil, sariq, yashil ekanini shoirgina anglab yetadi.

Shu tobda buyuk Alisher Navoiyning mashhur g‘azallaridan biri xayolingizdan o‘tgan bo‘lsa, ne ajab:

Xil’atin to aylamish
jonon qizil, sorig‘, yashil,
Shu’layi ohim chiqar har yon qizil,
sorig‘, yashil.

Erkin Vohidov “So‘z latofati” kitobida hazrat Navoiyning ushbu matlasini zukko she’rshunos sifatida shunday sharhlaydi: “Ohim alangasi qizil, sariq, yashil bo‘lib yonsa, buning boisi jononim qizil, sariq, yashil rangli liboslar kiygandir”. “Rang” – forscha, “lavn” (ko‘pligi “alvon”) – arabcha, turkiyda esa “tus” bo‘ladi. “Navoiy asarlari lug‘ati”da “rang” so‘zining beshta ma’nosi berilgan. Mumtoz lug‘atlarda “rang” so‘zining o‘ttiz bir ma’nosi izohlangan. Bitta so‘zni anglatish uchun shuncha kitobni faqatgina so‘zdan zavq topadigan, so‘zga mehr-u muhabbatli zarshunos, so‘z zargarigina, Erkin Vohidovdek fidoyi, zukko so‘zshunosgina varaqlab o‘qiydi. Shu bois, shoir haqli ravishda milliy til bilimdonlari safidan o‘rin oladi.

Erkin Vohidovning ba’zi she’riy misralari qat-qatida she’riyatga, shoirga, ijod psixologiyasiga doir qarashlarini nazmiy uslubda bayon qiladi. Bu asarlarda shoirning birorta adabiyotshunos olimdan kam bo‘lmagan bilimga ega ekani ko‘rinadi:

She’rning sozi – to‘rt satr,
To‘rt ajoyib – zo‘r satr.
Shoir odam o‘zini
To‘rt satrda ko‘rsatur.

Nazariy kitoblar, adabiy-tanqidiy maqolalarda “lirik qahramon” degan atamaga duch kelamiz. Bu ta’bir kimgadir tushunarli, kimdir anglashga qiynaladi. Shoir uni ayni sarlavhali bir she’rida nazmiy yo‘sinda talqin qilib aytadiki:

Yetar, nechun ta’rif-u tavsif,
Biz ikkimiz aslida bir jon.
Faqat olim meni muallif,
Seni atar lirik qahramon.

Muammo shu zaylda shoirona lutf bilan “hal qilinadi”. Holbuki, ko‘plab bahs-munozara obyekti bo‘lgan “muallif va qahramon” hovlisining eshigi hali bu kunga dovur yopiq turibdi.

Erkin Vohidov she’rlariga xos barcha fazilatlarni so‘z bilan bayon qilib bo‘lmaydi. Shoir so‘z san’atkori sifatida so‘zlarni o‘ynatadi. Masalan, yurakning yurib turishi, ko‘ngilning ko‘nib-ko‘nmasligi haqida xayolga kelmaydigan tasvirlarni topadi:



ariganda halovat kerak,
Arzir men ham tin olsam yengil.
Lekin bunga yurmaydi yurak,
Ko‘ngil, desam ko‘nmaydi ko‘ngil.

Bu kabi kichik bir she’rdagi so‘zlarning ma’no ko‘chimlari o‘quvchini zavqlantiradi.

O‘tgan asr o‘rtalarida mumtoz aruz vazni umrini o‘tab bo‘lgan “anjom” sifatida muzey eksponatlari qatoriga qo‘shilishiga bir bahya qoldi. Aslida, “aruz adabiyotning, umuman, san’atning hamma turlari kabi talant va mahorat, teran xayol va ehtiros talab qiladi”. Bu haqiqat Erkin Vohidovga ilhom berdi, aruzda yozganlari mumtoz vaznga qayta jon bag‘ishladi. Abdulla Oripov: “Erkin Vohidov aruzning tabarruk ostonasida posbon yanglig‘ paydo bo‘ldi”, deb bejiz yozmagan.

Shoirning “Yoshlik devoni” bilan aruz tomirlarida navqironlik qoni yugurdi. Shu orada shoir ikki vazn o‘rtasidagi bahslar haqida “Aruz va barmoq” degan she’r yozib, ular orasidagi “mojaro”ni bayon etdi. Har kim o‘zini maqtaydi. Xo‘sh, aslida kim zo‘r? Shoir yechimda aytadi:

“Men esam
O‘tmish-u kelajak aro
O‘rta yo‘lda qolgan bechoradurman.
Ular yuragimda
Qilsa mojaro,
Kelishtirmoq uchun ovoradurman”.

Shoir mumtoz an’ana yo‘lidan chekinmadi; barmoqda ham, aruzda ham go‘zal she’rlar, g‘azallar, muxammas-u dostonlar yozdi.


Aslida izoh va sharhlarda ba’zan she’rning tarovati, fayzi, ta’sir quvvati, kutilmagan badiiy qirralari, hatto ijodkorninig o‘zi ham o‘ylamagan ma’no qatlamlari ochiladi. Bunday saodatga erishish uchun adabiy tanqidchining ma’naviy-ruhiy olamida yuksak estetik ideallar jamlangan bo‘lishi lozim. Shunda yuraklar bir maromda dukillab uradi, shunda ikki kardiogrammada bir-biriga yaqin to‘lqinli chiziqlar suvrati paydo bo‘ladi. Chunki shoir o‘ziga qismatdosh insonga yuragini ochadi, aniqrog‘i, shoirning yurak dardi bilan yashay boshlagan o‘quvchigina uning sirli dardini anglaydi. Bunda qismatlar uyg‘unlashib, oradagi asrlar, yillar masofasi yo‘qoladi. Ma’naviy-ruhiy muloqot har ikki shaxsni dildosh va zamondosh insonlarga aylantiradi.

Mustaqillik davrida yozgan she’rlaridan birida Erkin Vohidov shunday yozgan edi:

Umrim agar bog‘ bo‘lsa, siz
Bog‘bonisiz, elim,
Tutdim, oling, o‘z bog‘ingiz
Sharbat, gulobidir...
Yoshing necha deb so‘rmangiz,
Yoron-u ahli dil,
Erkin Vatan yoshi mening
Yoshim hisobidir.

Erkin Vohidov el-yurtga, Vatanga o‘tkir so‘zi, she’ri, ovozi – butun vujudi bilan xizmat qildi. Bundan keyin ham shoirning she’rlari bashariyatga, she’riyat muhiblari qalbiga doimo zavq-shavq bag‘ishlashi, tabiiy. Dunyo xaritasida O‘zbekistondek beqiyos o‘lka bor ekan, uning boqiy umri asrlardan asrlarga o‘tib borar ekan, Erkin Vohidovdek tabarruk shoirlar ruhi har doim hur Vatanga hamroh bo‘ladi.

Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori,
professor



MUJDA

BEHBUDIYNING YANGI KUTUBXONASI

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1908-yili Samarqandda “Behbudiya” nomli mutolaaxona ochadi. Unda Hoji Muin, Saidahmad Vasliy Samarqandiy va Abduqodir Shakuriy singari ilg‘or qarashli maslakdoshlar faoliyat olib boradi. Bu maskan xalq tafakkurini yangilash, ilm va ma’rifat orqali jamiyatni o‘zgartirish yo‘lidagi yana bir muhim qadam edi. Kutubxona fondi bugungi kun talabiga ko‘ra ham benazir edi, u yerda nodir va yangi kitoblar, jurnallar, gazetalar, ensiklopediyalar, lug‘atlar, xaritalar jamlangandi. Afsuski, zulm va jaholat bandalari “Behbudiya”ga chang soldi...

Ne baxtki, “uzilgan bir kiprik abad yo‘qolmas” ekan, bugun ma’rifatparvar bobomizning kutubxonasi qayta ochildi. Faqat yangi shaklda, zamonga hamnafas holatda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar uchun ming kitob” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, “Mutolaa” ilovasi yosh ijodkorlar va ay-ti mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlab chiqildi. Bu tashabbus mamlakatda elektron va audiokitoblar orqali kitobxonlikni zamonaviy formatda rivojlantirish, yoshlar o‘rtasida o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirish, milliy va jahon adabiyoti durnonalarini keng ommaga taqdim etishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi.

“Mutolaa” mobil ilovasi hozirgacha 3,5 million martadan ziyod yuklab olingan. O‘qilayotgan kitoblar soni esa 12 milliondan oshdi. Yoshlar ishlari agentligi, “Xalq banki” va Respublika yosh ijodkorlar kengashi hamkorligida yo‘lga qo‘yilgan “Mutolaa” loyihasi o‘zbek tilidagi kitoblarni bir joyda to‘plab, hamma uchun bepul yoki arzon narxlarda foydalanish imkonini beradi.

Loyiha doirasida audio va elektron kitoblardan tashqari, bolalar adabiyoti, ay-ti dasturlar, sun’iy intellekt, illyustratsiya, media, kitob-kino hamda tarjima asarlari kabi yo‘nalishlarda 150 nafarga yaqin mutaxassis faoliyat olib bormoqda.

Shuningdek, o‘zbek adabiyotining sara namunalarini tarjima qilish va jahon bo‘ylab keng targ‘ib etish maqsadida Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma”, Sa’dullo Quronovning “Galaktikada bir kun” kabi asarlari chet ellik mohir tarjimonlarga topshirilyapti.

Bolalar adabiyoti “Mutolaa”ning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Loyiha qoshida yosh ijodkorlar maktabi tashkil etilgan bo‘lib, unda havaskorlar tomonidan “Ildiz” to‘plami yaratildi. Asosiy maqsad, ulug‘ ajdodlarimizning bolalik siymosini yorqin va ta’sirli shaklda namoyon qilishdir. Hozirda to‘plamdan o‘nta rasmli kitob joy olgan. Yaqin yillarda loyiha doirasida illyustratorlarni ish bilan ta’minlash dasturi yo‘lga qo‘yilib, ko‘plab yosh rassomlarni qamrab olish va ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish rejalashtirilgan.

Kundalik hayotda film va seriallar anonsini ko‘rishga o‘rganib qolganmiz, ammo kitobning tizeri qanday bo‘ladi? Tinib-tinchimagan odamlar yangicha va qiziqarli janr – “Kitob-kino”ni yaratishdi. Unda muayyan asar asosida hujjatli filmlar tayyorlanadi. Har yili o‘zbek hamda jahon adabiyotidagi eng yaxshi hikoyalar, romanlar asosida 10-15 ta film olinadi. Hozirgacha “Kichkina shahzoda”, “Chol va dengiz”, “Unsin”, “Puankare”, “Qo‘rqma” kabi filmlar yaratildi va ular YouTube platformasiga joylashtirildi.



Shu kunga qadar mingdan ortiq asar ilk bor sifatli formatda ovozlashtirildi. Bunday ko‘rsatkich va natijadorlik hozirgacha audio-kitoblar sohasida kuzatilmagan. Ular 30 dan ortiq professional dublyaj aktyorlari, O‘zbekiston xalq artistlari tomonidan eng zamonaviy studiyalarda yaratilgan.

Loyihaning yana bir muhim vazifasi – yurtimizda noshirlik faoliyatini rivojlantirish, mualliflarning nufuzini oshirish va huquqlarini ta’minlashdan iborat. Shu maqsadda ishga tushirilgan “Mutolaa Premium” platformasi noshirlar va mualliflarga o‘z kitoblarini sotish hamda daromad ko‘rish imkoniyatini taqdim etadi. Ayni vaqtda yetakchi nashriyotlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik shartnomalari tuzilgan va ushbu nashriyotlarning barcha kitoblari ilovaga joylangan.

Yaqinda “Mutolaa” loyihasi bilan hamkorlik qilish uchun mualliflar va ularning asarlariga qo‘yiladigan talablar e’lon qilindi. Ahamiyatlisi shundaki, endilikda respublika adabiy-badiiy gazeta-jurnallarida e’lon qilingan asarlar ham ushbu ilovaga joylashtirilishi mumkin.

Hozirda qariyb 30 ming foydalanuvchi “Mutolaa Premium” xizmatidan xarid tariqasida foydalanib kelmoqda. Yaqin yillarda 4 million kitobxonni qamrab olish va foydalanuvchilar sonini 50 mingdan oshirishni rejalashtiryapmiz.

Loyiha adabiy jarayonni rivojlantirish, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida madaniy tadbirlarni ham tashkil qiladi. Xususan, har oyda bir marta tashkil etiladigan “She’riyat kechasi” yoshlar orasida ommalashib, yosh ijodkorlarni rag‘batlantirib kelmoqda.

Hozirgi kunda 7ta ovoz yozish studiyasida 20ga yaqin tajribali aktyor va suxandonlar ishtirokida bir oy davomida besh yuz soatdan ortiq audiokitob tayyorlanyapti. Ilova ham Android, ham iOS platformalarida ishlaydi, bu esa uning keng auditoriya uchun hamda har bir mobil qurilmada oson va qulay foydalanish imkonini ta’minlaydi.

2025-yil 22-dekabr holatiga ko‘ra, ilovada 1 895 ta audiokitob va 2 513 ta elektron kitob mavjud. Ma’lumotlarga ko‘ra, bir yil davomida Andijon, Toshkent va Jizzax viloyati yoshlari “Mutolaa”dan eng ko‘p foydalangan. Bu ko‘rsatkichlar “Mutolaa”ning yoshlarni kitob o‘qishga rag‘batlantirishdagi samarali va zamonaviy platforma ekanini tasdiqlaydi.

Har bir kichik va ulkan muvaffaqiyatda ahil-inoq jamoamiz a’zolari – bosh muharrir Sa’dullo Quronov, muharrir Javlon Jovliyev, elektron kitoblar bo‘limi boshlig‘i Orif Tolib, ay-ti jamoasi rahbari Asilbek Xalilov, loyiha menejeri Hurliman Jumamuradova, media jamoa rahbari Jasurbek Anvarov, audiokitoblar bo‘limi boshlig‘i Shohsanam Xolboyeva, grafik dizayner Husanjon Jo‘raboyev hamda video operator Yusuf Rustamovning hissasi katta.

Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa’dullayev har gal ko‘rishganimizda:

“Toki o‘zbekistonlik bolalar uchun kitob o‘qish nafas olishdek zaruratga aylanmaguncha biz mehnat qilaveramiz. Bu ish bizning gardanimizga tushgan, bu – katta vazifa. Uni uddalash bizga mas’uliyat va sharaf!” deydi.

“Mutolaa” – Behbudiy asos solgan ma’rifat maktabining raqamli davrdagi davomidir. Demak, qutlug‘ an’ana yangi shaklda davom etayotir.

Sirojiddin OLIMOV,
“Mutolaa” loyihasi rahbari

TA’LIM VA HAYOT UYG‘UNLIGI

Boshlanishi 1-sahifada.

Millatning najot yo‘li, mustaqillikni mustahkamlashning ishonchli kaliti bo‘lgan ta’lim tizimini isloh qilish ma’muriy masala emas, balki milliy xavfsizlik masalasi sanaladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida so‘nggi yillarda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘zining ko‘lami va mohiyati jihatidan tarixiy ahamiyatga ega. “O‘zbekiston–2030” strategiyasida bu soha alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangani bejiz emas. Tizimga ajratilayotgan mablag‘lar keskin oshirilib, yuzlab maktablar, yangi turdagi zamonaviy maskanlar bunyod etilmoqda.

Ta’limning sifati faqat mablag‘ emas, balki zamon talablari va istiqbollarini to‘g‘ri baholay olish salohiyati bilan ham bevosita bog‘liq, albatta. Shu bois, xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish, yuqori malakali pedagoglarni tayyorlash, o‘qituvchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarimizni sifatli ta’lim bilan ta’minlash borasidagi bunday keng ko‘lamli sa’y-harakatlar hozirdanoq ilk samarasini bera boshladi.

Oila pedagogikasining sohada o‘rni qanday?

Oilaning ta’lim-tarbiya borasida beqiyos rol o‘ynashi ilmiy asoslangan haqiqatdir. Bola hayotining ilk yillarida oilada olgan taassurotlari uning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlarida poydevor bo‘ladi. Biroq, afsuski, bugun bu mas’uliyat ko‘proq maktabga yuklanayotganiga guvoh bo‘lyapmiz. Ta’lim-tarbiyada oila ta’siri kamayib, ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojdan ko‘ra moddiy ehtiyojning kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Ota-ona tirikchilik tashvishlari bilan band bo‘lib, farzandlarining ma’naviy hamda jismoniy tarbiyasiga yetarli e’tibor qaratmasligi oddiy holga aylanmoqda. Bu esa farzandlarning axloqiy qarashlari, ruhiy dunyosi va qadriyatlar tizimi shakllanishida jiddiy bo‘shliqlarni yuzaga keltirmoqda.

“Biz pul to‘laymiz, demak, siz tarbiyani ham ta’minlashingiz kerak!” – bu so‘zlar bugun ota-onalar, ayniqsa, xususiy maktablarga bolasini bergan oilalar tomonidan yangrayotgan da’vodir. Farzandini ta’lim muassasasiga yuborayotgan ota-ona go‘yo bola bilan birga uning tarbiyasi uchun javobgarlikni ham maktab zimmasiga yuklashga intilmoqda.

Ayni paytda ayrim yurtdoshlarimiz tirikchilik ilinjida xorijda mehnat qilayotgani sir emas. Demak, ularning farzandlari otasiz yoki onasiz, ba’zan esa ota-onasiz ulg‘aymoqda. Xorijda ishlab, farzandining ilk qadamlarini ko‘rmagan, ilk so‘zlarini eshitmagan, maktabdagi yutuqlarini kuzatmagan ota-ona nimani yo‘qotayotganini anglarmikan? Bola tarbiyasi uchun eng muhim vaqt – uning yonida bo‘lish imkoniyati qo‘ldan chiqayotganini tushunarmikan? Ota-ona va farzand o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlikni sovg‘a-salom yoki yuboriladigan pul bilan to‘ldirib bo‘lmaydi. Farzandning moddiy ehtiyojlari qongani bilan uning ruhiy olami, qalbi, ongi ham boyib qolmaydi.

Maktab – bilim o‘chog‘i, oila – tarbiya beshigi. Bu ikki muhim institut o‘rtasidagi hamkorlik, uyg‘unlik buzilsa, kelajak avlod tarbiyasida oqsash yuzaga kelishi muqarrar. Shunday ekan, keling, avvalo o‘z oilamizni ma’naviyat qo‘rg‘oniga aylantiraylik. Farzandlarimiz tarbiyasini boshqalar zimmasiga yuklamaylik.

Oila pedagogikasi – farzandlarni kamol toptirish, ularning ruhiy va jismoniy rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha ota-onalar amalga oshiradigan tarbiya jarayonining ilmiy asosi. Bugungi axborot oqimi, yot madaniy ta’sirlar, turli mafkuraviy xurujlar sharoitida yoshlar ongini zararli g‘oyalardan himoya qilishda ushbu pedagogika muhim vazifani o‘taydi.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda oila pedagogikasini rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, bu yo‘nalish bo‘yicha mukammal ilmiy baza yaratish, milliy tarbiya an’analari, buyuk allomalarimizning oila tarbiyasiga oid qarashlarini tadqiq etish, tizimlashtirish va zamonaviy amaliyotga joriy etish darkor. “Oila akademiyalari” tarmog‘ini shakllantirib, ota-onalarning pedagogik salohiyatini oshirish kerak. Shuningdek, mahallalarda nuroniylar ishtirokida uchrashuvlar o‘tkazish, ibratli oilalar tajribasini ommalashtirish zarur.

Mahalla – muhim institut

Hozirgi kunda mahalla faqat ajdodlardan qolgan meros emas, balki davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan institut hamdir. Prezidentimiz tashabbusi bilan mahallalarda eng muhim ijtimoiy muammolarning yechimini ta’minlovchi yettilik tizimi tashkil etildi, ularning to‘laqonli faoliyat yuritishi uchun yetarli mablag‘lar ajratildi. O‘zingiz ayting, qachon mahallalarda shunchalik ko‘p kuch va imkoniyat mujassam bo‘lgan?

Bugun mahallalarda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha ta’sirchan va amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish zaruriyati tobora ortib bormoqda. Ayni vaqtda, yoshlarning qiziqishi, intilishi, dunyoqarashi o‘zgargan sharoitda, ularga faqat an’anaviy yondashuv bilan ta’sir o‘tkazib bo‘lmaydi. Zamonaviy yoshlar bilan ishlashda innovatsion usullar, zamonaviy texnologiyalar va yangicha yondashuvlar talab etiladi. Biz farzandlarimizning to‘g‘ri tarbiya topishidan manfaatdormiz. Lekin bugungi tezkor, shiddatli, axborot oqimi o‘ta kuchli bo‘lgan davrda hamma ham farzandiga to‘g‘ri tarbiya bera oladimi? Afsuski… Shuning uchun ham mahalla zarur. Xalqimiz “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” deb bejiz aytmagan. Bu masala bizning qonimizda, milliy pedagogikamizning o‘zagida bor.

Noto‘liq oilalarda tarbiya topayotgan bolalarga alohida e’tibor qaratish zarur. Ota-onadan birining yo‘qligi farzandda turli psixologik muammolarni keltirib chiqarishi, uning xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shunday holatlarda mahalla ko‘makka kelishi, bola tarbiyasida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, kerak bo‘lsa, amaliy yordam berishi lozim.

Yoshlar uchun sport to‘garaklari, madaniy tadbirlar, kitobxonlik kechalari, uchrashuvlar tashkil qilish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga ko‘maklashish – mahallaning muhim vazifalaridan biri.

Oila muammolarini o‘rganuvchi ilmiy-amaliy markazlar har bir viloyat va tuman kesimida noto‘liq oilalar, ularning farzandlari bilan ishlash bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif-xulosalar berishi lozim. Quruq statistika emas, amaliy chora-tadbirlar kerak.

Tasavvur qiling: tumanda yuzdan ortiq noto‘liq oila bor. Oila muammolarini o‘rganuvchi markaz mutaxassislari mahalla mutasaddilari bilan hamkorlikda shu oilalarni birma-bir o‘rgansa, ularning farzandlari bilan suhbatlashsa, psixologik testlar o‘tkazsa, muammolarni aniqlasa, so‘ng har bir oila uchun individual dastur ishlab chiqsa – natija bo‘ladimi? Albatta, bo‘ladi. Bundan tashqari, markaz ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ibot ishlarini olib borishi kerak. Oila qadriyatlarini ulug‘lash, ota-onalik mas’uliyati, oilaviy munosabatlar madaniyatini oshirish masalalari keng auditoriyaga yetkazilishi lozim.

Yangilanayotgan bog‘chalarga yangicha nazar

Yaqin-yaqingacha ham jamiyatimizda maktabgacha ta’lim haqida so‘z ketganda, “bog‘cha faqat ovqat beradi-da” qabilidagi yengil qarash mavjud edi. Bugun-chi? Yaqinda bir necha viloyat bog‘chalarida bo‘ldik. Qarang, to‘rt-besh yoshli go‘daklar allaqachon o‘qish-yozishni o‘rganmoqda. Zamonaviy bog‘chalarda bir qancha xorijiy tillarda sodda jumlalarni gapiruvchi, 100 tagacha so‘z yodlab olgan bolalarni ko‘rish mumkin. Bu Prezidentimizning maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi islohotlari natijasidir. Mamlakatimiz demografik holatidan kelib chiqib, maktabgacha ta’limni kuchaytirish, qamrovini oshirish, sifatini yuksaltirish borasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar o‘z samarasini bermoqda.

Bog‘chalarning soni ortyapti, ta’lim sifati tubdan o‘zgaryapti. Sohada haqiqiy raqobat paydo bo‘lib, uning ilk natijalari allaqachon ko‘zga tashlana boshladi. Endilikda bog‘chalar bolalar salohiyatini ochadigan, intellektual qobiliyatini rivojlantirib, dunyoqarashini kengaytiradigan, ijodiy fikrlashga o‘rgatadigan ta’lim maskaniga aylanmoqda. Ko‘plab bog‘chalarda “hayotiy ko‘nikmalar”, “aqliy salohiyatni oshirish”, “emotsional intellekt”, “kreativ fikrlash” kabi yo‘nalishlarda maxsus dasturlar joriy etilgan. Oddiy o‘yin orqali matematika, fizika, kimyo, biologiyaning dastlabki tushunchalari singdirilmoqda, ingliz tilida muloqot qilish ko‘nikmalari shakllantirilmoqda.

Maktabgacha ta’lim sohasidagi raqobat pedagoglarning ham malakasini, bilim va ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Bugun tarbiyachi-pedagoglardan har bir bolaning qobiliyati, iste’dodini aniqlash, uni rivojlantirish, turli yo‘nalishlarda mashg‘ulotlar o‘tkazish talab etilmoqda. Ishini yaxshi bilmagan, zamon bilan hamqadam bo‘lmagan tarbiyachilar esa o‘zidan o‘pkalashi kerak.

Maktab ta’limidan nima kutamiz?

Keyingi yillarda mamlakatimizda maktab ta’limiga e’tibor kuchaydi, o‘qituvchilarning maqomi, ish haqi oshirildi, yangi ta’lim muassasalari qurildi, mavjudlari zamonaviy talablar asosida rekonstruktsiya qilindi. Biroq, barcha sa’y-harakatlarga qaramay, hali maktab ta’limi sifati borasida jiddiy muammolar mavjudligini ochiq aytishimiz kerak. Ko‘plab bitiruvchilarning bilim darajasi zamon talabiga javob bermayapti. Buni so‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarining natijalari, ish beruvchilarning fikrlari ham tasdiqlamoqda.

XX asr boshlarida, millatimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatli davrida jadid ma’rifatparvarlari maktab ta’limini o‘z faoliyatlari markaziga qo‘yib, millat taraqqiyotining bosh omili sifatida aynan yangi usuldagi zamonaviy maktab ta’limini ko‘rganlar va shu olijanob g‘oya yo‘lida mollari-yu jonlarini ham fido qilganlar. Ular uchun maktab ta’limi – bu shunchaki yosh avlodni savodxon qilish emas, balki mustamlakachilik asoratidan qutulish, milliy uyg‘onish, xalqimizni jaholat changalidan qutqarishning eng to‘g‘ri vositasi edi.

“Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”, deb yozgan edi Mahmudxo‘ja Behbudiy. Fitrat “Najot yo‘li ma’rifatdir”, deb ta’kidlagan bo‘lsa, Munavvar qori fikricha, “Millatni qutqarmoq uchun maorif kerak!” Bu so‘zlar naqadar haqqoniy ekani bugungi yuksak texnologiyalar asrida yanada yaqqolroq ko‘rinmoqda.

Maktab ta’limi – butun ta’lim tizimining poydevori qanchalik baquvvat bo‘lsa, uning ustiga quriladigan imorat – keyingi bosqich va amaliy hayot ham shunchalik mustahkam bo‘ladi.

Kasbni bugun tanlang, ertaga kech bo‘lmasin!

Biz maktab o‘quvchilariga qanday kelajak hadya etmoqdamiz? Haqiqiy savolning mag‘zi shunda! Kasbga yo‘naltirish masalasi bo‘yicha qancha konferensiyalar o‘tkazamiz, qancha ma’ruza va nutqlar so‘zlaymiz, ammo aksar bolalarimiz 11 yillik ta’limdan so‘ng, hamon “Endi nima qilaman?” degan savolga javob izlab sarson bo‘ladi.

Maktablarda kasbga yo‘naltirish – bu faqatgina taklif emas, bu bugungi kunimizning talabi, ertangi kunimizning kafolati! Negaki, to‘g‘ri tanlangan kasb – nafaqat shaxsiy baxt, balki butun jamiyat taraqqiyotining kaliti. O‘z kasbidan nolib yurgan minglarcha odamlarning umri bekor ketayotgani – fojia emasmi?

Zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, kecha urf bo‘lgan kasblar bugun qadrsizlanib bormoqda. Bolalarimizni bu shiddatli o‘zgarishlarga tayyorlayapmizmi? Afsuski, ko‘plab maktablarimizda hamon kasbga yo‘naltirish deganda, bitiruvchi sinfdagi bir-ikki soatlik ma’ruza tushuniladi, xolos! Qani zamon talabiga javob beradigan kasbga yo‘naltirish kabinetlari? Qani jahon tajribasi asosida ishlab chiqilgan tizimli yondashuvlar? Qani ishlab chiqarish bilan maktab o‘rtasidagi amaliy hamkorlik? Savollar ko‘p, ammo amaliy javoblar oz!

Maktab o‘quvchilari orasida so‘rov o‘tkazilsa, ularning aksariyati qaysi kasbni egallashini aytib berolmaydi. Ularning tanlovi ko‘pincha ota-ona, atrofdagilar ta’siri yoki tasodifiy omillar asosida shakllanadi. Natijada ertaga minglab yoshlarimiz o‘zi qiziqmaydigan sohada mehnat qilishga majbur bo‘ladi. Bu kimga kerak? Ko‘pchilik yoshlar tez daromad topish maqsadida tijorat sohasiga kirib, oldi-sotdi bilan mashg‘ul bo‘lishni afzal ko‘rayotgani, ilmiy ishlanmalar, ijodiy loyihalar, innovatsion g‘oyalar va aqliy mehnat mahsuli bo‘lgan intellektual mulk yaratish faoliyatidan tobora uzoqlashayotgani achinarli holat. Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur kabi mamlakatlarda kasbga yo‘naltirish maktab ta’limi davomida uzluksiz olib boriladi. O‘quvchilar turli kasblarni “tatib ko‘rish” imkoniyatiga ega. Ularda amaliyot o‘zaro bog‘liq uchlik asosida qurilgan: maktab – oila – ishlab chiqarish! Bizda-chi?

Xorij maktablarida kasbga yo‘naltirish fan sifatida o‘qitiladi. O‘quvchilarga “portfolio” tutish, rezyume tayyorlash, suhbatlardan o‘tish ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Bizda esa bu masala ko‘pincha “hamma narsaga ulguradigan” sinf rahbarlari zimmasiga yuklanadi. Biz qachongacha farzandlarimizni “tasodifiy” kasblar sari yo‘naltiramiz? Qachongacha ularning bebaho qobiliyatlari ochilmay qolaveradi? Qachongacha “hamma o‘qiydigan” kasblar ortidan ko‘r-ko‘rona ergashaveramiz?

Maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishni kechiktirmay boshlash – bu, jamiyatimizga, kelajagimizga qilingan investitsiya.

Uzluksiz ta’lim uyg‘un ham bo‘lsin

Ta’lim tizimi mustahkam zanjirning bo‘g‘inlari kabi uzviy bo‘lishi, biri ikkinchisini davom ettirishi, rivojlantirishi kerak. Ammo bu zanjirda uzilish bo‘lsa, butun tizim unumli ishlamaydi. Bugungi kunda ta’lim tizimida jiddiy muammolardan biri – maktabgacha ta’lim bilan umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta ta’lim bilan o‘rta maxsus va oliy ta’lim o‘rtasidagi uzviylik masalasidir.

Maktabgacha ta’limda bolalar ko‘proq o‘yin orqali, erkin muhitda bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Biroq boshlang‘ich ta’limga o‘tganlarida, ularga birdaniga rasmiy talablar qo‘yilib, o‘quv yuklamasi keskin ortadi. Tarbiyachi bilan o‘qituvchi pedagogik yondashuvlari o‘rtasidagi farq tufayli ko‘plab bolalarda moslashuv qiyinchiliklari yuzaga keladi.

Oliy ta’lim muassasalarining dars xonalariga kirib, birinchi kurs talabalari bilan suhbatlashsangiz, ularning ko‘pchiligi bir xil qiyinchilik haqida gapiradi: “Maktabda boshqacha o‘qitishgan edi, boshqa narsalarni talab qilishardi, bu yerda talablar mutlaqo boshqacha ekan”. Bu yuzaki shikoyat emas, balki ta’lim tizimidagi jiddiy uzilishning ko‘zgudagi aniq ifodasidir. Maktab sinfxonasidan universitet auditoriyasiga o‘tish talaba uchun shunchaki yangi bilim olish bosqichi emas, balki o‘zgacha tafakkur tarziga o‘rganishni talab qiladigan murakkab bosqichdir. Nega shunday? Chunki maktabda o‘quvchidan ko‘proq o‘qituvchi aytganlarini diqqat bilan eshitish, darslik va qo‘llanmalardagi tayyor ma’lumotlarni yodlash, aytib berish talab qilinsa, oliy ta’limda o‘zgacha yondashuv – mustaqil izlanish kutiladi.

Maktab o‘qituvchilari ham, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari pedagoglari ham, oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari ham o‘z fanlarining rejalarini bir-biridan mustaqil ravishda, ko‘pincha o‘zaro muloqotsiz ishlab chiqadilar. Natijada fanlar mazmunida yoki ortiqcha takrorlanishlar bo‘ladi (bir xil mavzular turli bosqichlarda deyarli bir xil tarzda o‘qitiladi) yoki aksincha, bo‘shliqlar paydo bo‘ladi (muhim mavzular biror bosqichda o‘tilmay, o‘rganilmay qoladi). Ta’lim bosqichlarining baholash tizimidagi tafovutlar ham qiyinchilik tug‘diradi.

Ta’lim marketingidan ehtiyojlar xaritasiga

Bugungi kunda ta’lim sohasidagi eng katta va jiddiy muammolardan biri – ta’lim marketingining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani, ya’ni mehnat bozori ehtiyojlarini to‘g‘ri baholash hamda shu asosda malakali kadrlar tayyorlash masalasining oqsayotganidir. Bu muammo ta’lim tizimining ish beruvchilar ehtiyojlariga moslashuvchanligi pastligidan dalolat beradi. Iqtisodiyot va turli hududlar kesimida kadrlarga bo‘lgan “Ehtiyojlar xaritasi” hanuz to‘liq ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinmagan. Bunday xaritaning yo‘qligi kadrlar tayyorlash jarayonini rejalashtirishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mehnat bozorida bir qator jiddiy nomutanosiblik, disbalanslarni keltirib chiqarmoqda va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qilmoqda.

Bu murakkab holat ko‘plab yoshlarning shaxsiy kelajagiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, iqtisodiyotning ayrim sohalari, xususan, yuqori texnologiyalar, muhandislik, sanoat va qishloq xo‘jaligi kabi yo‘nalishlarda malakali kadrlar yetishmasligi kuzatilsa, ikkinchi tomondan, tashvishli tendensiya – “oliy ma’lumotli ishsizlar” toifasining paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu paradoksal vaziyat davlat va oilalar byudjetiga katta zarar keltiradi. Aslida, har bir hududning iqtisodiy salohiyatini chuqur tahlil qilish asosida, o‘sha mintaqada qaysi kadrlarga ehtiyoj borligini aniqlab olish, shunga ko‘ra talabgir mutaxassislarni tayyorlash tizimini zamonaviy ilmiy asosda yo‘lga qo‘yish, maqsadga muvofiqdir. Hozirgi bosqichda hududlar bo‘yicha kadrlar ehtiyojini bashoratlash metodologiyasini takomillashtirish, mehnat bozorini monitoring qilish tizimini yanada kuchaytirish, ish beruvchilar bilan ta’lim muassasalari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash zarurati mavjud.

Aksariyat yoshlar zamonaviy tendensiyalarga qarab, nisbatan ommaviy kasblar, masalan, yurisprudensiya, iqtisodiyot, tibbiyot kabi sohalarni tanlashga moyil bo‘lib, ba’zida kasb egallashdan ko‘ra diplom olishni asosiy maqsad qilib qo‘yadilar. Bu holat ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarli emasligidan darak beradi.

Shunday ekan, ta’lim marketingiga – mehnat bozori talablarini har tomonlama chuqur o‘rganish, ilmiy asosda tahlil qilish va shu asosda ta’lim yo‘nalishlarini kelajak ehtiyojlariga mos ravishda belgilashga alohida e’tibor qaratish vaqti allaqachon keldi. Bu masala kunni kechiktirmasdan hal etilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalardan biridir. Ta’lim sohasidagi islohotlarning asl mohiyati ham shu – mehnat bozorining bugungi va ertangi talablariga javob beradigan, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga haqiqiy hissa qo‘sha oladigan malakali kadrlar tayyorlashdan iborat.

Prezidentimiz qayta-qayta ta’kidlaganidek, ta’lim tizimi jamiyat ehtiyojlaridan bir qadam oldinda bo‘lishi kerak, aks holda, biz global raqobatda ortda qolamiz. Bu esa ta’lim tizimidan strategik fikrlashni talab qiladi. Kadrlar tayyorlash masalasiga faqatgina “Bugun qaysi kasblar ommabop va qaysi mutaxassislar talab qilinmoqda?” degan savolga emas, balki “Ertaga, besh yoki o‘n yildan so‘ng qaysi sohalar rivojlanadi va qanday mutaxassislar kerak bo‘ladi?” degan muhim savolga javob izlab yondashish zarur. Bu yondashuv ta’lim muassasalarimizga iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini inobatga olgan holda, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, yangi mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.



Shukritdin PAXRUTDINOV,
siyosiy fanlar doktori,
professor



> **Makotib — taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur.**
>
> **Mahmudxo‘ja BEHBUDIY**

YURT QAYG‘USI

MADANIY ISLOHOT TARIXI

Taniqli ma’rifatparvar Hoji Muinning “Marhum Behbudiy va rafiqlarining shahid bo‘lg‘anliklari va alar tomonidan yozilgan vasiyatnoma” (“Mehnatkashlar tovushi”, 1921-yil 28-mart) hamda “Mahmudxo‘ja Behbudiy” (“Zarafshon”, 1923-yil 25-mart) kabi maqolalari behbudiyshunoslar va jadidsevarlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Maqolalarda yozilishicha, Mahmudxo‘ja Samarqand shahri yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li oilasida tug‘ilgan. Otasi asli turkistonlik bo‘lib, Xoja Ahmad Yassaviy avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo‘ja asli xorazmlik bo‘lib, XVIII asr oxirlarida Samarqandga ko‘chib kelgan. Mahmudxo‘ja otasi vafotidan so‘ng tog‘asi Mulla Odildan arab tili bo‘yicha saboq olgan. Shuningdek, qozixonada mirza bo‘lib ishlagan Mulla Odil Yaxshiboy o‘g‘li va Samarqand madrasasida tog‘asi Mulla Siddiqdan tahsil ko‘radi, keyin Buxoro madrasalarida o‘qiydi.

Behbudiy 1899—1900-yillarda to‘ng‘ich farzandi vafotidan so‘ng haj ziyoratini o‘tagan, unga buxorolik ma’rifatchi Hoji Baqo yo‘ldosh bo‘lgan. U ziyoratga Kavkaz – Istanbul – Qohira orqali borganini “Qasdi safar” asarida yozib o‘tgan. Behbudiy Misr va Istanbulda bir muddat yashaydi. 1903–1904-yillarda Moskva va Peterburgga boradi. Safardan so‘ng o‘zining maslahati bilan ochilgan Saidahmad Siddiqiy va Abduqodir Shakuriyning jadid maktablari uchun dastur va qo‘llanmalar yozishga kirishadi. 1906-yil 23-avgustda Nijniy Novgorodda o‘tkazilgan Rusiya musulmonlari qurultoyida Turkiston delegatsiyasining rahbari sifatida qatnashadi va musulmon madaniyati to‘g‘risida nutq so‘zlaydi.

Safardan qaytgach, Samarqandda “Behbudiya” kutubxonasi va qiroatxonasini tashkil qiladi. 1913-yil 16-apreldan “Samarqand” gazetasini chiqara boshlaydi, “Behbudiya” matbaasini tashkil etadi. Gazeta yopib qo‘yilgach, “Oyina” jurnalini ta’sis etib, uning bosh muharriri va noshiri sifatida faoliyat yuritadi.

1914-yilning 9-mayidan yana safarga otlanib, Bayramali, Ashxobod, Krasnovodsk kabi turkman shaharlaridan o‘tadi va Kaspiy dengizi orqali Odessaga keladi, Istanbul, Adirna kabi turk shaharlarida bo‘ladi. So‘ngra Quddus, Bayrut, Xubrun, Damashq, Qohira, Makka kabi yirik shaharlardan o‘tib, yana Odessa orqali Yevropaga qaytadi. Safar davomida ko‘rgan-kechirganlari va ma’rifiy masalahatlari “Oyina” jurnalida davomli berib boriladi. Jurnal iqtisodiy tanglik va mustamlaka ma’murlarining qistovi bilan yopilgach, Mahmudxo‘ja Behbudiy Kobul qozixonasida muftiy vazifasida ishlaydi. Oradan bir yil o‘tgach, “Zarafshon” shirkatini tashkil etadi. Bu shirkatning yirik ishlaridan biri “Hurriyat” gazetasining tashkil etilishidir. Gazetaga dastlab 1917-yilning 15-aprelidan Mardonqul Muhammadzoda muharrirlik qiladi, nashrning 27-sonidan Behbudiy taklifi bilan Abdurauf Fitrat muharrirlikka jalb etiladi. Shu yilning o‘zida “Nashri maorif” jamiyatini ta’sis etadi, bir qator xayriya jamiyatlarining ishlarida qatnashadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning qizg‘in faoliyati, nafaqat “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnali, balki butun Turkiston matbuotida faol qatnashgani, biri yopib qo‘yilgan taqdirda yangi noshirlik va matbaa idoralarini ochishga intilgani uning Vatan ozodligi uchun tolmas kurashchi bo‘lganidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda, Mahmudxo‘ja Behbudiyning Samarqand muftiysi bo‘lib ishlab yurgan davrida Rusiya III davlat Dumasi Musulmon fraksiyasi uchun tayyorlagan “Turkiston madaniy islohoti loyihasi” haqida kengroq to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ushbu loyiha matni 9 bob, 4 qo‘shimcha bo‘lim va 25 banddan iborat. Tartib bo‘yicha 1 dan 25-raqamga qadar joylashtirilgan. Matn “III Dumaning ehtiromli Musulmon fraksiyasi g‘ayratli vakillarining majlis ahliga murojaat” deb boshlanadi.

Kirish matnida yozilishicha, Turkiston uchun II Dumaga yozilgan bu hujjat Duma tarqatib yuborilgach, qabul etilmagan. Shuning uchun muallif uni III Duma qatnashchilariga Rusiyaning 20 million musulmon xalqi nomidan murojaat bilan boshlagan va hujjatga “1907-sana, noyabr. Samarqanddan ittifoqi muslimin idora markaziyasi a’zolarindan muftiyi dorulqazo Samarqandiy Mahmudxo‘ja Behbudxo‘ja o‘g‘li” deb imzo qo‘ygan.

Hujjatning 1-bo‘limi Duma xususida bo‘lib, uning birinchi moddasida davlat Dumasi uchun Turkiston aholisi nomidan “islomiyag‘a mutanosib vakil” saylanishi aytilgan, chunki Turkiston ahlining aksariyati mahalliy musulmonlardir. Keyingi moddalarda hukumat ishlari va majlislariga Turkiston aholisining adadidan kelib chiqib o‘rin ajratilishi va jalb qilinishi ko‘zda tutilgan.

2-bo‘limda Rusiya musulmonlarining raisi o‘z vazifasini ijro etishi uchun Peterburg shahrida “mahkamayi islomiya” barpo bo‘lishi va uning rahbari musulmonlar tarafidan saylanishi lozimligi aytilgan.

3-bo‘lim Turkiston idorasi xususida bo‘lib, “Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Semirechenskiy–Yettisuv, Zakaspiyi movarayi Bahri Hazar oblastlaridan iborat Turkiston o‘lkasig‘a bir idorayi ruhoniya va doxiliya barpo bo‘lishi” va uning mahkamasi Toshkent shahridan boshqarilishi so‘ralgan. So‘ngra Turkiston idorayi doxiliya tarkibi, uning viloyatlardagi sho‘balari xususida so‘z boradi.

4-bo‘lim “Idorayi ruhoniya va doxiliya a’zolarining xatti-harakati” deb nomlanib, unda mahkama ishiga mutasaddi bo‘lgan shayxulislom va oxund vazifalari belgilanadi va mazhabchilik ayirmasi, ya’ni “boshqa vajhg‘a sunniy va shi’a orasida farq bo‘lmasligi” uqtiriladi.

5-bo‘limda bu idora tasarrufidagi ishlar: mahalliy rus mahkamalariga savolnoma va raddiya (protest) berish va “xalq huquqini hukumati mahalliyadan talab etmoq va himoya qilmoq” deb belgilangan. Bu idora meros-valodat (tug‘ilish), usubat hazonat (bola boqib olish va tarbiyalash), nikoh-taloq, ro‘zg‘or va oila ishlari, ko‘char va ko‘chmas mulk masalalari hamda nomus da’volari bilan mashg‘ul bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Mazkur bo‘limning keyingi moddalarida masjid, madrasa, maktab, vaqf, vasiyat ishlariga mas’ul shaxslar, ulardagi mutavalli (hisobchi) va nozirlar faoliyati, diniy va dunyoviy tahsil tartibi maktab va madrasa dasturlarida aks etishi lozimligi ta’kidlangan. Turkiston qozilari “shar’iy, urfiy, tijoriy va zamoniy ishlarni so‘ramoqlari uchun dasturulamal va qonunnomalar tasnif etmog‘i” lozimligi bayon qilingan. “Urf va rasm nomi bilan joriy odoti qabihalarni tadrijiy yo‘q bo‘lishig‘a sa’y va tadbir qilmoq”ligi aytilgan. Ayni masalada Behbudiyning bir qator maqolalari ham e’lon qilingan bo‘lib, unda to‘ylardagi ortiqcha hasham va isrofgarchilik, o‘lim munosabati bilan o‘tkaziladigan noshar’iy marosimlar haqida tanqidiy fikr yuritilgan.

Barcha maktablar, xoh u ruhoniy bo‘lsin, xoh milliy va doxiliy bo‘lsin, ularga ishga kiradigan o‘qituvchilar va tahsil oladigan o‘quvchilar uchun imtihonlar belgilanishi, maktabni bitirgach, shahodatnoma berish va ularning tartibli ravishda bajarilishi uchun nazoratlar o‘rnatish talabi bayon qilingan. Yer-suv masalalarini hal etishda Turkistonning doxiliy maishiy hayotini yaxshi bilgan kishilarning mutasaddi bo‘lishi, bu borada qonunlar chiqarib, unga amal qilish ta’minlanishi ham so‘ralgan.

Hujjatning 6-bo‘limi “Idorayi ruhoniya va doxiliya mas’uliyati” haqidadir. Idora, sho‘balar va ijroiya mahkamalar ishlari bo‘yicha dorulqazo, rais va a’lamlar, ularning xiyonat va jinoyatlari doimiy suratda taftish qilib turiladigan darajada mahkamaning birinchi ishi ekanligi anglatilgan.

7-bo‘lim “Turkiston qozilari xususida” bo‘lib, ularning saylanish tartiblari, o‘z kasbiga munosibliklari, ularning ishga tayin etilishi va bo‘shatilishi ham mazkur idora ixtiyorida ekanligi alohida qayd qilingan. Bir qozi ishidan norozi kishi to‘rt qozidan iborat hay’atga murojaat etishi, qozilar tomonidan yoziladigan hujjat ishlari, hukmnoma va qayd daftarlari turkcha (o‘zbekcha) yozilishi talab etilgan. Turkiston hududida umumiy tijoratxonalarda, ajnabiylar (chet elliklar) da’vosi, g‘ayridinlar bilan bo‘ladigan mojarolarda ham qonunnomalarga muvofiq ish yuritilishi, harakat va hukm qilinishi ko‘zda tutilgan.


Hujjatning 8-bo‘limi “joniy va badkorlar” (jinoyatchi va axloqsizlar)ga bag‘ishlangan bo‘lib, Turkistonda uch marotabadan ortiq o‘g‘rilik va boshqa jinoyatlarni sodir etganlar yurt hududidan muvaqqat (ma’lum muddatga) yoki muabbad (bir umrga) haydalishi aytib o‘tilgan. Turkistonlik bo‘lmaganlar sodir qiladigan gunohlar ham tegishli tartibda hukm etilishi lozimligi ta’kidlangan.

Loyihaning so‘nggi 9-bo‘limi “Turkiston yahudiylari va ajnabiylari” deb nomlanib, Turkiston hududida qonun barchaga barobar ekanligi, sodir bo‘ladigan mojaro va savdolar qonun doirasida amalga oshirilishi, turkistonlik bo‘lmaganlar uchun ham mahalliy qozi va idoralar tomonidan belgilangan qonunlarga rioya etilishi, bular amalga oshmagan taqdirda ularga ko‘riladigan choralar ham Turkiston qazoyi mahkamalarida amalga oshirilishi so‘ralgan. “Vaqflar xususinda”, “Umumiy maktablar” va “Suv va yerlar xususinda” kabi moddalar ham Turkiston yerli aholisi himoyasi nuqtayi nazaridan tartib berilgan. Qo‘shimcha qilingan masalalar asosiy hujjatda bayon qilingan moddalarning ijrosi uchun ko‘rsatmalardir: *“Rusiyag‘a umumiy o‘qituv masala va moddasi Turkistonni musoviyayi mushtamil (tenglikni o‘z ichiga olgan) bo‘lsin; Turkiston maktab va madrasalari hukumat nazoratida bo‘lsin; Umumiy o‘rta va oliy maktablarg‘a musulmonlardan komissiya tayinlansin. Rus harfi musulmon maktabig‘a jabriy bo‘lmasin”.*

Mahmudxo‘ja Behbudiyning buyuk islohotchilik qarashlarini yanada chuqur o‘rganish va anglashga yordam beradigan mazkur “Turkiston madaniy islohoti loyihasi” Ismoil G‘aspralining shaxsiy arxividan topilgan. Bu loyiha Dumada ko‘rilgani yoki nashr bo‘lgani haqida ma’lumotga ega emasmiz.

Loyiha keyinchalik G‘aspralining farzandlari tomonidan taniqli jadidshunos olim Temur Xo‘jaga taqdim qilingan. Olim uning matnini turkcha tarjimasi bilan nashr etgani tufayli endilikda ushbu manbani o‘qib, tahlil qilish imkoniyati tug‘ildi.

Hamidulla BOLTABOYEV,
filologiya fanlari doktori,
professor



Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi” (1907) matni, boshlanishi va oxirgi qismi.

JAHON AYVONIDA

GIGANT QORBOLA

Xitoyning “qish poytaxti” sifatida mashhur bo‘lgan Xarbin shahrida olti qavatli bino balandligiga teng ulkan qorbola yasaldi.



Nodir qor haykal atigi 11 kun ichida yaratilgani bilan ham diqqatni tortdi. Bu haqda The Sun nashri xabar tarqatdi.

Ma’lumki, qor va muz haykaltaroshligi bilan dunyoga tanilgan Xarbin shahrida har yili xalqaro festival o‘tkaziladi. Biroq bu yil shahar aholisi va sayyohlarni qariyb 19 metr balandlikka ega gigant qorbola yanada hayratga soldi. U o‘z ko‘lami va ishlovi bilan oddiy installyatsiya emas, balki qish mavsumining ramziga aylandi.

SUVOSTI KEMASI TOMOSHASI

Shimoliy Koreya yetakchisi Kim Chen In qizi bilan birga suvosti kemasi qurilishini kuzatdi va uzoq masofali yer-havo raketalari sinovida qatnashdi. Bu haqda Reuters xabar berdi.



Sinovlar mamlakatda yangi turdagi baland parvoz qiluvchi raketalarni ishlab chiqish bo‘yicha strategik texnologiyalarni baholashga qaratilgan. Ular 200 kilometr uzoqlikdan havodagi nishonlarni yo‘q qilgan. Harbiylar sinovlardan xabardor bo‘lgan va oldindan hozirlik ko‘rgan.

TRAMP QO‘LLAGAN NOMZOD G‘ALABASI

AQSH prezidenti Donald Tramp qo‘llab-quvvatlagan konservativ siyosatchi Nasri Asfura Gondurasdagi prezidentlik saylovlarida g‘olib deb e’lon qilindi.

U chet el aralashuvi va ovoz berishdagi qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi da’volar bilan kechgan saylovda o‘ng-markazchi Salvador Nasrallani kichik farq bilan ortda qoldirdi.



Saylov komissiyasi ma’lum qilishicha, Milliy partiya a’zosi Asfura 40 foizdan ortiq, Nasralla esa 39 foizdan ortiq ovoz to‘plagan. Hukmron partiyaning so‘l qanotdagi nomzodi Riksi Monkada 19 foiz ovoz bilan uchinchi o‘rinni egalladi.

HIMOLAYDA URUSHGA TAYYORGARLIK

Hindiston Himolay tog‘lari bo‘ylab yo‘llar, tunnellar, samolyot va vertolyot qo‘nish yo‘laklarini qurish uchun yuz millionlab dollar sarflamoqda.



Bu harakatlar uning azaliy raqibi Xitoy bilan kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘qnashuvga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida amalga oshirilmoqda.

2020-yilda Hindiston va Xitoy o‘rtasidagi qonli chegara to‘qnashuvi har ikki tomondan askarlarning halok bo‘lishiga olib kelgan. Bu voqea 3540 kilometrlik bahsli chegara bo‘ylab xavotirli xavf tug‘dirgan.

1,8 MLRDLIK JEKPOT G‘OLIBI

AQSHning Arkanzas shtatida istiqomat qiluvchi omadli lotereyachi Rojdestvo arafasida 1,8 milliard AQSH dollari miqdoridagi Powerball jekpotini qo‘lga kiritdi.



Powerball bayonotida aytilishicha, chiptalarning so‘nggi daqiqadagi sotuvi tufayli Amerikadagi jekpot miqdori 1,817 milliard AQSH dollariga yetdi. Bu summaning naqd pul varianti 834,9 million AQSH dollarini tashkil etib, AQSHdagi ikkinchi yirik lotereya jekpotiga aylandi.

EHTIROM

Hech kim ziyoli yoki tayyor mutaxassis bo‘lib tug‘ilmaydi. U tarbiyalanadi, shakllanadi. Gulchehra opa pedagog Sodiq ota va shifokor Tojixon ayaning oilasida tug‘ilib, ziyoli muhitda voyaga yetdi. Maktabni oltin medal bilan bitirib, ToshDU filologiya fakultetiga o‘qishga kirdi. Bu yerda Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Umarali Normatov, Tal’at Solihov, Miraziz Mirtojiyev, Yormat Tojiyev singari ustozlardan fan sirlarini qunt bilan o‘rgandi. Diplom ishini G‘aybulla as-Salom boshqarayotgan tarjima nazariyasi kafedrasidan oldi. Najmiddin Komilov rahbarligida dublyaj san’atidagi tarjima, badiiyat va lablashtirish masalalariga bag‘ishlangan diplom ishini a’lo baholarga topshirdi. Ana shu nuqtada unda san’at olamiga qiziqish boshlandi. Diplom ishini yozish jarayonida atoqli tarjimon Qodir Mirmuhamedov, taniqli adib, davlat va jamoat arbobi O‘lmas Umarbekov suhbatlaridan bahramand bo‘ldi.



GULCHEHRASI BO‘LGAN SAN’ATIM

Hayoti o‘qituvchilik yo‘lidan ketishi mumkin bo‘lgan bir pallada taqdir Gulchehra Umarovani 1978-yilda “O‘zbekiston madaniyati” gazetasiga yo‘lladi. Bosh muharrir, fan arbobi Laziz Qayumovning sinovidan o‘tib, ishni musahhihlikdan boshlaydi. O‘sha vaqtda otasi: “Oliy ma’lumotli bo‘la turib, imlo xatolarini to‘g‘rilab o‘tirasanmi?” deb og‘ringan ekan. La’l Bahodir Shastri maktabida hind tilini yaxshi o‘zlashtirgan qahramonimiz Indra Gandining so‘zlarini eslatadi: “Ahamiyatsiz kasb, kichkina odam yo‘q! Erkak yo ayol bo‘lishidan qat’i nazar, hamma o‘z ishini yaxshi bajarsa, butun mamlakat gullab-yashnaydi”. Qizining qaysarligi va birso‘zli ekanini bilgan Sodiq ota oq fotiha beradi. Gulchehra opa hali-hanuz o‘sha kunlarni eslab aytadiki, “Men asli filolog edim. Korrekturada o‘tirib jurnalistga aylandim. Chunki gazetaga kelgan hamma materialni o‘qirdim. Barchaning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish imkoni bor edi. Asta-sekin o‘zim ham yoza boshladim”.

Gulchehra Umarovaning mehnat daftarchasida va yuragida umrining 47 yili badaliga faqat bir tahririyatning nomi qayd etilgan. Ushbu gazeta turli yillarda “O‘zbekiston madaniyati”, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” deb nomlanib, 2024-yildan “Jadid” nomi bilan chop etilmoqda. Osonmi, o‘n uch bosh muharrir bilan ishlash, ularning talablariga javob berish? Bu ro‘yxatda Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Sa’dulla Hakim, Ahmadjon Meliboyev, Salim Ashur kabi darg‘alarning borligiyoq kishini shoshiradi.

Gulchehra opaning dublyajni chuqur o‘rganishi hamda kelin bo‘lib tushgan oilasidagi muhit uning san’at jurnalistikasi yo‘lidan ketishiga turtki bo‘ldi. Ustozimiz garchi san’atshunoslik bo‘yicha ilmiy ish qilmagan bo‘lsa-da, faoliyati davomida o‘nlab, yuzlab olimlar uchun tayyor manbalar zaxirasini shakllantirib berdi.

Aksar havaskor jurnalistlar boshida tanqid qilib, mashhurlarni yoritib tanilib oladi, hay’atlar qoziligiga o‘tadi-da, maqsad hosil bo‘lgach, birdan pushti ko‘zoynakni taqib, hamd-u sanoga o‘tib ketadi. Nega? Bu yog‘iga obro‘-martabani yo‘qotmasdan umr oxiriga yetib olishni o‘ylaydi. Maqtagan banda siylovsiz qolmaydi, axir. Lekin Gulchehra Umarova qariyb ellik yillik faoliyati davomida maslagidan, a’molidan toymadi. Ustoz jurnalistning “Yaxshidir achchiq haqiqat” kitobini o‘qib, shu xulosaga keldim. O‘tgan asrning 80-yillaridan shu kunlarimizgacha bo‘lgan davrdagi maqola va suhbatlarida qat’iyat, jasorat va albatta, haqiqat jamoli jilva qiladi.

Ijodni uzoq yillar davomida bir ruhda ushlab tura olish – aytishga oson, lekin odam hayoti faqat ishdan iborat emas-ku. Uning ham oilasi, ro‘zg‘or tashvishlari, ayollik mas’uliyati bor. Gulchehra opa bu borada ham ibrat ko‘rsatib, yetuk farzandlarni tarbiyalab, el-yurt xizmatiga qo‘shgan.

Mehnat qilgan odam, albatta, rohatini ko‘radi. Gulchehra Umarova o‘tgan yillar mobaynida davlatimizning “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoni, “Mehnat shuhrati” ordeni singari yuksak mukofotlari bilan taqdirlandi.

Bugun ustoz yetmish yoshni qarshiladi. Mashhur adiblarimizdan biri yozganiday, Gulchehra opaga tabrik uchun “adres papka” topilmaydigan 90, 100 va undan ziyoda umr tilaymiz!

KASBDOSHLAR

TARIX VA TAQDIR

HAQ YENGAR, YENGILMAS!

Yaqin tariximizning ijtimoiy-madaniy hayotida jadid harakati kabi muhim o‘rin tutgan, ayni paytda, uningdek xilma-xil talqinga ega ikkinchi hodisani topish mushkul. Bu harakat vakillarining ijtimoiy kelib chiqishi, dunyoqarashi va faoliyat yo‘nalishlari ham, tabiiyki, bir xil bo‘lgan emas.

Odatda, jadidlar va qatag‘on qurbonlari haqida gap ketganda, tergovchilar salbiy qiyofada gavdalanadi. Ammo qahramonimiz – qo‘qonlik tergovchi Ibrohimjon Musaxonovning qismati boshqacha kechdi.



Qatag‘on qurboni Ibrohimjon Musaxonovning “Qizil O‘zbekiston” gazetasida (1932-yil 29-may №122) e’lon qilingan surati.

Ibrohimjon Musaxonov 1904-yili Qo‘qonda savdogarlar oilasida tug‘ilib, shahar iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga yaqin muhitda ulg‘ayadi. O‘sha vaqtda o‘lkamizdagi savdogarlar qatlami orasida jadid g‘oyalariga xayrixoh, an’anaviy ta’lim bilan bir qatorda, amaliy bilim va rus tilini o‘zlashtirishga intiladigan shaxslar ko‘pchilik edi. Shu jihatdan, Ibrohimjonning dastlab eski maktabda, keyin esa rus-tuzem maktabida tahsil olishi ajablanarli hodisa emasdi.

1917-yildan keyin shakllana boshlagan yangi hokimiyat tuzilmalari uchun savodli va jamoatchilikni tushunadigan kadrlarga ehtiyoj ortib borishi natijasida, hali o‘spirin Ibrohimjon Musaxonov Qo‘qon shahar militsiyasida xizmat qila boshlaydi. Keyinchalik uning daha qo‘mitasida (1918–1920) hamda qizil armiya safida (1921–1922) faoliyat yuritgani ijtimoiy faol shaxslarning davlat xizmatiga bosqichma-bosqich jalb etilganini ko‘rsatadi.

1921–1923-yillarda mahalliy sud organlarini qayta tashkil etish, ular faoliyatini jamoatchilikka tushuntirish va yangi huquqiy tartibni targ‘ib qilish vazifasi kun tartibiga chiqadi. Jarayonda sud idoralari huzurida matbuot bilan ishlash amaliyoti shakllana boshlaydi. Shu tariqa, Ibrohimjon Musaxonov 1923-yili Farg‘ona viloyati sudida jurnalist sifatida ishlaydi. Mazkur faoliyat unga sud tizimini bevosita ichidan kuzatish va o‘rganish imkonini beradi. Qolaversa, ayni shu yillar uning faoliyatida huquqiy fikrlash qobiliyati shakllangan bosqich sifatida alohida ahamiyat kasb etganini kuzatamiz.

1924-yili u Farg‘ona viloyati partiya qo‘mitasi huzurida tashkil etilgan sudyalar tayyorlash kursini tamomlaydi. O‘quvni tugatiboq, sud tizimiga mutaxassis sifatida jalb etiladi. 1924–1926-yillarda u viloyat sudining shikoyatlar bo‘limida kotib vazifasini o‘tab, sud hujjatlariga yana bir qadam yaqinroq keladi, qarorlarni rasmiylashtirish, arizalarni ko‘rib chiqish jarayonlarida ishtirok etadi. So‘ng Beshariq, Chust, Pop tumanlarida tergovchi bo‘lib ishlaydi. 1929-yildan Qo‘qon shahar ichki ishlar bo‘limida tergovchi lavozimida ish boshlagan Ibrohimjon Musaxonov shu zaylda kasbiy faoliyatini to‘la-to‘kis huquq-tartibot tizimi bilan bog‘laydi. Biroq...

Sovet qatag‘on siyosati jamiyatning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatgani kabi, prokuratura va sud-huquq tizimida ham mislsiz qurbonlarni yamlamay yutdi. Sohani yaxshi tushungan, haq-huquqini tanigan va qonun ustuvorligini istagan insonlar birinchilardan bo‘lib ta’qibga uchradi, chunki ular oddiy odamlarga o‘z haqqini, umumlashtirib aytganda, hurriyatni talab qilishni o‘rgatishi mumkin edi. Ularning o‘rni markazdan kelgan ko‘rsatmalarni gap-so‘zsiz bajarishga moyil shaxslar bilan to‘ldirib borildi.

O‘zSSR Adliya xalq komissarligi markaziy apparatining 1931-yildagi tarkibi biz aytayotgan holatni yaqqol ifodalaydi. Rahbar lavozimlarda ishlagan shaxslarning aksari yevropa millatlaridan iborat bo‘lib, mahalliy huquqiy an’analar va jamiyat ehtiyojlaridan uzoq edi. Mavjud mahalliy kadrlarning ham ko‘pchiligi quyi ma’lumotli, malakasi past, sud-huquq tizimiga atigi uch-to‘rt yil oldin jalb etilgan kishilar bo‘lganini hujjatlar orqali ko‘rish mumkin.

Bunday kadrlar siyosati tizimda ishlagan tajribali va mustaqil fikrlaydigan insonlar uchun xavfli muhitni vujudga keltirdi. Ibrohimjon Musaxonov ham aynan shu soha vakili sifatida bu jarayonni boshidan kechirdi. Sohadagi o‘zgarishlar uning qadriyatlari va qarashlariga tobora qarshi kela boshladi.

Ayni paytda, prokuratura tizimida siyosiy buyurtmalarni bajarishga moyil kadrlar oldinga surildi. Badriddinov, Qosimov ishlarini “munosib ado etgan” Katanyan va Ginsburg kabi shaxslar respublika prokuraturasida yanada yuqori mavqeni qo‘lga kiritdi. Mahalliy va markaziy matbuot esa “badriddinovchilik” degan tushuncha atrofida tuhmat va bo‘htonlarga to‘la yuzlab buyurtma maqolalar bilan to‘ldirildi.

1930-yillarga kelib, Qo‘qon shahri, umuman, Farg‘ona vodiysida gazetalar ayrim shaxslar faoliyatini keskin tanqid qilish maydoniga ham aylanadi. Ayniqsa, sud va prokuratura tizimidagi xodimlar, ular faoliyati borasida chiqishlar ko‘payadi. Ibrohimjon Musaxonov nomi aynan shu davrda matbuot sahifalarida tilga olina boshlaydi. 1930-yil 3-avgust kuni “Yangi Farg‘ona” gazetasida “Sog‘lom apparatda ifloslar basharasi” nomli maqola chop etiladi. Unda Qo‘qon rayon soqchilar boshlig‘i Qurbon Qosimov faoliyati tanqid ostiga olingan bo‘lsa-da, uning ishi aynan Ibrohimjon Musaxonov tomonidan tergov qilinayotgani alohida ta’kidlanadi. Shu orqali, Musaxonov bilvosita jinoyatni yopib qo‘yayotgan shaxs sifatida ko‘rsatiladi. Bu maqola uning obro‘siga qaratilgan birinchi ochiq zarba edi.

Oradan ko‘p o‘tmay, ushbu gazetada “Darul ahloq starshisi” nomli yana bir xabar chiqib, unda darul ahloq nazoratchisi Yoqubjon Hoshimov poraxo‘rligi bayon qilinadi. Ibrohimjon Musaxonov bu holatni bila turib chora ko‘rmagan, jinoyatni yashirgan tergovchi sifatida tasvirlanadi. Hech qanday sud qarori yoki rasmiy xulosaga tayanmagan bu ayblovlar Musaxonov haqidagi salbiy tasavvurni yanada kuchaytiradi.

Jarayon tobora keskin tus olib, “Badriddinovchilar ishi” bo‘yicha o‘tkazilgan sayyor sud jarayonlari matbuotda keng yoritilayotgan 1932-yilning may oyida “Quloq bilan hamtavoq” nomli maqola bosilib chiqadi. Unda Musaxonov ochiqdan ochiq “quloqlar bilan til biriktirgan”, “sinfiy dushmanlarga xizmat qilgan” tergovchi sifatida ko‘rsatiladi. Hali sud hukmi chiqmasdan, “aybi bo‘yniga ilib qo‘yiladi” go‘yo.

Bosimlar bosqichma-bosqich kuchayib boraveradi. Bu maqolalar haqiqatni aniqlashni emas, aksincha, jamoatchilik oldida aybdor obrazini yaratishni ko‘zlardi. Natijada Musaxonov oldiniga gazetalarda, so‘ng tergovda aybdorga aylantiriladi. U O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 63-moddasi bilan aybdor deb topilib, uch yilga ozodlikdan mahrum etiladi va partiya safidan chiqariladi. Shu tariqa, uning ilk qamalishi aynan matbuot muhitida pishib yetilgan, oldindan shakllantirilgan bo‘htonlarning mantiqiy davomi edi.

1934-yilda Musaxonov oilasi bag‘riga qaytadi. Ayoli Adolatxon, ikki farzandi – Tursunoy va Samatoy bilan og‘ir sharoitda yashay boshlaydi. Davlat xizmatiga qaytish imkoni bo‘lmagani uchun Qo‘qondagi omonat kassaga kassir bo‘lib ishga joylashadi. Biroq “katta terror” qirg‘ini qayta xuruj olgach, avvalgi “ayb”lar tag‘in ko‘tariladi. U 1937-yil 1-sentyabr kuni Qo‘qon shahar NKVDsi tomonidan ikkinchi bor hibsga olinadi. Uyida o‘tkazilgan tintuvda diniy adabiyotlar, “Davr dushmanlari”, “Badriddinovchilik”, “Bomba” kabi kitoblar, shaxsiy hujjatlar musodara qilinadi. Tergov paytida uning fikrlari umuman inobatga olinmaydi. 1937-yil 13-noyabrda NKVD “uchligi” qarori bilan Ibrohimjon Musaxonov O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandiga asosan 8 yil qamoq jazosiga hukm qilinadi.

Afsuski, uning keyingi taqdiri hujjatlarda aks etmagan. Lekin avvalgi uch yillik avaxta va uning og‘ir oqibatlari har qanday insonning jismoniy va ruhiy muvozanatini izdan chiqarishi turgan gap. Boz ustiga o‘rmonga o‘t ketib, ho‘l-u quruq barobar yonayotgan mudhish sharoitda, repressiyaning ikkinchi to‘lqinida har qanday azamat juvonmarg bo‘lib ketishiga shubha yo‘q. Shunday qilib, qahramonimiz belgilangan muddatdan so‘ng ota uyiga qaytmagan yoki yaqinlariga biror belgi bermagan. Demak, millatning ilg‘or farzandi, fidoyi ziyolisi Ibrohimjon Musaxonovni ham qattol siyosat qurboni sifatida shahidlar ro‘yxatiga qo‘shishga majburmiz.

Shu o‘rinda, qatag‘on qurboni bo‘lgan ma’rifatparvar shoir Muhammadsharif So‘fizodaning mana bu satrlari esga tushadi:

Haqlik degani yengar, yengilmas,
Haqiqat egilar, ammoki sinmas.

Mustaqillik tufayli tarixiy haqiqatni tiklash va qatag‘on davri voqealarini ilmiy asosda o‘rganish imkoniyati yaratildi. Bu jarayon “xalq dushmani” tamg‘asi bilan nohaq qamalgan, surgun qilingan, otilgan – yoppasiga qatag‘onga uchragan o‘n minglab insonlar taqdirini qayta baholash, ularning nomini tiklash hamda jamiyat xotirasini adolatli tarzda shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Qatag‘on siyosatining ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy oqibatlarini tahlil etish orqali millat tarixining og‘riqli sahifalari ochilmoqda. Bu esa tarixiy tafakkurni boyitish, haqiqatni xolis anglash va milliy o‘zlikni mustahkamlash yo‘lida, shubhasiz, muhim qadamdir.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

QALAMNING QUDRATI

Boshlanishi 1-sahifada.

Said Rizo Alizoda 1887-yil 15-fevralda Samarqandda tug‘ilgan. Otasi hoji Mirmaxsum eronlik mansabdor shaxs bo‘lib, 1882-yilda Xurosondan Buxoro orqali Samarqandga ko‘chib kelgan. Onasi Hadichabegim esa mashhur ozarbayjon bastakori Uzeyir Hojibekovning qarindoshi hisoblanadi.

U ilk ta’limni avval Samarqanddagi madrasada, keyin ozarbayjon olimi Shayx Abulqosim tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktabida olgan. Qisqa muddatda maktabni yuqori baholarda tamomlaganidan so‘ng, shu yerda muallimlikka olib qolingan. Ish jarayonida maktab kutubxonasidagi Ozarbayjon, Eron va Hindistonda nashr etilgan gazeta va kitoblarni muntazam o‘rganib, bilim doirasini kengaytirib borgan. 1906-yildan Demurov nomli bosmaxonada harf teruvchi sifatida faoliyat yuritgan, keyinroq rus tilida chiqadigan “Samarqand” gazetasida musahhihlik qilgan. Bu unga tilni chuqur o‘rganish va rus tilidagi adabiyotlar bilan yaqindan tanishish imkonini bergan. U oliy ta’limni olti yil davomida Mashhad madrasasida olgan.

Said Rizo Alizoda jadidlar sarkori Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan hamkorlikda o‘zbek tilida chop etiladigan “Samarqand” gazetasini tashkil etgan, 1913-yildan boshlab “Oyina” jurnalida faoliyat yuritgan. Ushbu nashrlarda Turkiston maktablari va madrasalaridagi eski ta’lim tizimi tanqid qilingan hamda islohotlar o‘tkazishga qaratilgan maqolalar muntazam e’lon qilib borilgan. Yuqoridagi nashrlarda “Telegraf xabarlari” sahifalari berilishida ham uning hissasi katta bo‘lgan.

Said Rizo Alizodaning 1917-yilda “Buxoro, uyg‘on!” nomli maqolasi “Buxoroyi sharif” gazetasida e’lon qilinganidan so‘ng, Fayzulla Xo‘jayev uni Buxoroga taklif qilgan. Shu yili u “Sharq”da muharrir, “Hurriyat”da esa tarjimon va muxbir sifatida faoliyat yuritgan.

1922-yildan boshlab Said Rizo Alizoda “Zarafshon” gazetasida bo‘lim mudiri sifatida mehnat qilgan. Shu bilan birga, “Turkiston xabarlari”, “Kambag‘allar o‘qi”, “Hurriyat”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Buxoroyi sharif”, “Turon”, “Samarqand ovozi” gazetalari hamda “Mashrab”, “Mulla Mushfiqiy” jurnallarida muntazam ravishda maqola va feletonlari bilan qatnashib turgan. U o‘z asarlarida Bahlul, Zambur, Ranjbar, Bog‘ishamoliy, Shapaloq, S.A. kabi taxalluslardan foydalangan. Matbuotdagi faoliyati bolshevik hokimiyatini qattiq tashvishga solgan, buning yaqqol misoli sifatida “Men suddan qo‘rqmayman” maqolasidagi qat’iy va ochiq pozitsiyasini keltirish mumkin. Ushbu maqolada u jasorat bilan quyidagi jumlalarni yozadi: “Hibsda yotishni o‘zim uchun faxr va e’tibor deb sanayman. Chiqing maydonga, men suddan qo‘rqmayman!”

Said Rizo Alizoda mahalliy boylarni yangi usul maktablariga mablag‘ ajratishga ko‘p marta targ‘ib qilgan. Ta’lim sohasidagi faoliyati 1907-yilda “Hayot” va 1909-yilda “Maktabi islomiya” maktablarini ochish bilan boshlangan, bu maktablar asosan kambag‘al oilalar farzandlariga ta’lim berishga mo‘ljallangan edi.

Uning o‘quvchilar uchun tayyorlagan darsliklari qatorida “Sarfi arab”, “Turkiy alifbo”, “Tarix”, “Jug‘rofiya”, “Riyoziyot”, “Handasa”, “Tabiat”, “Din vojiblari”, “Nizomnoma”, “Badan tarbiyasi”, “Ilmi fazo” kabi kitoblarini sanab o‘tish mumkin. Boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan bu darsliklar o‘quvchilarni savod chiqarishga, aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga egalik qilishga yo‘naltirilgan.

Shuningdek, u o‘zbek maktablari uchun “Birinchi yil” alifbosini yaratib, yangi usul maktablariga bepul tarqatgan. Maktabdorlik faoliyatidan tashqari, u shahardagi ruslar uchun kechki kurslar tashkil qilib, ularga o‘zbek va tojik tillarini o‘rgatgan.

1916–1922-yillarda teatr san’atida ham faol ishtirok etgan Said Rizo Alizoda Behbudiyning “Padarkush”, Molerning “Zo‘raki tabib”, Uzeyir Hojibekovning “Arshin mol olan”, “Layli va Majnun”, “Asli va Karam” va Husayn Jovidning “Shaydo”, “Shayx San’on” asarlarini sahnaga qo‘yishda ishtirok etgan va ayrim rollarni ijro etgan.

Poliglot, qomusiy bilim va jasorat sohibi Said Rizo Alizoda faoliyati xorijdagi ilm-fan, davlat va jamoat arboblari tomonidan ham e’tirof etilgan. Jumladan, nabirasi Farhod Alizodaning ma’lum qilishicha, Afg‘oniston hukmdori Omonullaxon farmoni bilan Said Rizo Alizoda fors tilida “Asri saodat”, “Odobi ikrom”, “Tarixi islom”, “Tarixi Turkiston”, “Madaniyati islom”, “Fan dar borayi koinot” va boshqa asarlarni yozgan va ular 1923–1933-yillarda Pokistonning Lohur shahrida nashr qilingan.

Ma’rifatparvar mutafakkir lug‘atshunoslik sohasida ham faoliyat yuritgan. 1933-1934-yillarda 61 ming so‘zdan iborat ikki jildlik ruscha-tojikcha lug‘atni nashr ettirgan. Shuningdek, tarjimonlik bilan faol shug‘ullanib, Aleksandr Pushkinning “Yevgeniy Onegin”, “Dubrovskiy”, “Kapitan qizi”, Fyodor Gladkovning “Sement”, Nikolay Ostrovskiyning “Po‘lat qanday toblandi”, Sinkler Eptning “Yuz foiz”, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarlarini tojik tiliga tarjima qilgan. Shuningdek, u afg‘on taraqqiyparvari Mahmud Tarziy bilan hamkorlikda Jyul Vernning “Yer yuzi bo‘ylab 80 kunlik sayohat” asarini fors tiliga o‘girgan.

Said Rizo Alizoda 1933–1937-yillarda Samarqanddagi universitetda arab va fors tillaridan dars berdi va umrini millat ravnaqi, ma’rifat va yangi qarashga ega avlod tarbiyasiga bag‘ishladi.

Afsuski, uni 1938-yil 3-fevralda dars berib turgan xonaning o‘zida NKVD xodimlari qamoqqa oladi. Oldiniga



Said Rizo Alizoda oila a’zolari bilan.

Samarqand, so‘ng Toshkentda, keyinroq Tobolsk va Vladimirda 8 yil qiynoqlar ostida tutqunlik azobini tortgan Said Rizo Alizoda 1945-yil 24-dekabrda qamoqxonada sil kasalidan vafot etadi. Ammo qatag‘on mashinasi oila boshlig‘ini yo‘q qilish bilan tinchimaydi. Mustabid tuzum jallodlari Alizodaning o‘g‘li Said Tog‘izodani ham 10 yilga Sibirning sovuq o‘rmonlariga surgun qiladi. Oilaning boshqa a’zolariga ham bir necha yillar mobaynida tayziqlar o‘tkazib kelinadi. Said Rizo Alizodaning nomi 1958-yil 16-yanvarda O‘zSSR Oliy sudi yopiq majlisida ko‘rilib, reablitatsiya qilingan esa-da, ammo bu to‘laqonli oqlanish emasdi.


Qadimgi Rim huquqshunosi Ulpian “Adolat hammaning haqini o‘z egasiga qaytarib berishdir”, deb yozgan edi. Said Rizo Alizodaning haq-huquqlari, pok nomi aynan mustaqillik yillarida elimizga qaytarildi, barcha jadid ziyolilari qatori uning porloq xotirasiga munosib ehtirom ko‘rsatildi. Xususan, u yashagan uy 1998-yil noyabrda muzeyga aylantirildi va hayot yo‘lini ochib beruvchi ko‘rgazmalar hamda ilmiy merosi bilan boyitildi. Samarqand shahri ko‘chalaridan biriga, shahardagi 14-maktab va o‘zi yashagan mahallaga Said Rizo Alizoda nomi berildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkent shahridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi kutubxonasiga Said Rizo Alizoda nomi berildi. Uning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan hujjatli film tayyorlandi. Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tomonidan 2017-yilda tayyorlangan risolaga Said Rizo Alizodaning hayoti va taqdiri, qoldirgan boy ilmiy merosi hamda uy muzeyi haqida ma’lumotlar kiritildi.

Bu ezgu tashabbuslarning hayotga tatbiq etilishi, shubhasiz, muhtaram Prezidentimiz tomonidan jadidlar merosini har tomonlama o‘rganishga qaratilgan izchil e’tibor va mazkur yo‘nalishda qabul qilingan muhim qarorlar bilan uzviy bog‘liqdir. Ana shu siyosiy iroda va ma’naviy tayanch natijasida jadid harakatining ma’rifiy-tarixiy ahamiyatini yanada teran anglab yetmoqdamiz.

Baxtiyor HASANOV,
Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari doktori, professor

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Sharipjon Abdurahmonov – 1884-yil Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi. Aholi orasida mag‘lubiyatchilik, aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda, “Milliy ittihod” millatchi aksilinqilobiy tashkilotning boshqa a’zolari bilan yaqindan aloqada bo‘lganlikda ayblangan. 5569-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 27-avgustdan hisoblangan.

Yusufhoji Eshonxo‘jayev – 1896-yili Kosonsoy rayoni Qorasuv qishlog‘ida tug‘ilgan. “Nashri Maorif” tashkilotining faol ishtirokchisi bo‘lgan. Qamoqqa olingan paytda hisobchi bo‘lib ishlagan. U quloqlar guruhiga boshchilik qilganlikda, partiya va hukumatning xotin-qizlarni ozod qilinishiga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Mol-mulki musodara etilgan.

Kubri Abduqayumov – 1886-yili Samarqand shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. 1931-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 3 yil surgunga hukm etilgan. Hibsga olingan vaqtda O‘zbekiston kooperatsiya xomashyosida tayyorlovchi bo‘lib ishlagan. Doimiy ravishda qarshi targ‘ibot olib borganlikda, kapitalistik tuzumni maqtaganlikda ayblangan. 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilib, jazo muddati 1937-yil 19-avgustdan hisoblangan.

Islombek Arslonbekov – 1901-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1918-yili ko‘ngilli harbiy xizmatda bo‘lgan. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi kotibi Akmal Ikromov 1937-yil 21-sentyabrda qamoqqa olinganidagi tergovda aksilinqilobiy tashkilotda Islombek Arslonbekov ham bo‘lgani qayd etilgan. 1937-yil 8-oktyabrda qamoqqa olinib, Toshkent turmasiga keltirilgan. Unga O‘zbekistonda aksilinqilobiy faoliyat ko‘rsatgan degan ayb qo‘yilgan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining 1938-yil 8-oktyabrdagi sayyor yig‘ilishida otuvga hukm etilib, hukm o‘sha kunning o‘zidayoq amalga oshirilgan.

Mirzakarim Mirzarahmatov – 1897-yili Toshkentda tug‘ilgan. 1921-yili Toshkent uyezd ijroiya qo‘mitasining raisi lavozimida ishlagan. 1934-yili Moskvadagi Butunittifoq Sanoat akademiyasini tamomlaganidan so‘ng Toshkent to‘qimachilik kombinati direktorining o‘rinbosari lavozimiga tayinlangan va u yerda sovet hokimiyatiga qarshi munosabatda bo‘lgan muhandislar: Temurbek Qozibekov, Fabbax Tursunov va Alovuddinovni jalb etgan holda milliy kontrrevolyutsion guruh tashkil qilgan. 1937-yil 4-avgustda “Milliy ittihod” tashkilotida faol bo‘lganlikda ayblanib hibsga olingan. Aybnomaga ko‘ra Mirzarahmatov bu tashkilot topshirig‘i bilan o‘zbek ishchilari orasida targ‘ibot olib borib, ularni tashkilotga yollashga harakat qilgan. Shuningdek, u tashkilot topshirig‘iga binoan milliy ozodlik harakati qo‘shinlarini qurol-yarog‘ bilan ta’minlashda ishtirok etganlik va hujumlarni tashkil etish choralarini muhokama qilganlikda ayblangan. Mirzakarim Mirzarahmatov O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 58-, 63-, 64-, 65- va 67-moddalari bo‘yicha 1938-yil 8-oktyabrda SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasi tomonidan otuvga hukm qilingan, hukm o‘sha kuniyoq ijro etilgan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).

JAMIYAT VA BIZ

QODIRIYNING QASAMI

Buyuk adibimiz Abdulla Qodiriy sharqona qadriyatlar ruhida tarbiya topgan oliyjanob shaxs sifatida, o‘z hayoti va ijodida islomiy va dunyoviy odob-axloq me’yorlarini hamisha muvozanatda ushlagan. “Yig‘indi gaplar” maqolasi uchun mahkamaga tortilganida ham, garchi adolatsizlik qurboni bo‘lgan esa-da, adibni o‘ta bosiq holda ko‘ramiz.



Asarlariga to‘xtamay tosh otayotgan kimsalarga yozgan raddiyalarida ham sira-sira jahl otiga minmaydi. Ayrim o‘rinlarda so‘zi isboti uchun achchiq xanda yoki kesatiqlar keltirish bilan cheklanadi. Ammo ushbu xassos va achchiq satrlar adib qalamiga mansub ekanini bilasizmi: “Oramizdagi o‘zbek, tojik va qozoqlik ig‘volarini alangalatib yurgan duvarak odamlarni yo‘qotmoq qasamini ichaylik!” Xo‘sh, adib nega bu qadar jahl otiga mingan, ushbu satrlarni yozmoqqa uni nima majbur qilgan?

“Mushtum” jurnalining 1925-yil 22-sonida e’lon qilingan “Bir yil” sarlavhali maqolasi tagsarlavhasiga adib “jiddiya” deb yozib qo‘ygan. E’tiborlisi, adibning vaqtli matbuotda chop qilingan yuzlab maqolalarida “jiddiya” tagsarlavhasiga deyarli duch kelmaymiz. Demak, Qodiriyni g‘azablantirgan nimadir ro‘y berganki, u zot satira tig‘ini bir lahzada o‘tkir xanjarga aylantirish majburiyatida qolgan.

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda eng ko‘p kuzatilayotgan mavzulardan biri nima, bilasizmi? O‘ta tor doiradagi mahdud millatchilik! Ming yillarki, yaqin qo‘shni bo‘lib yashayotgan, tili va dini, qadriyatlari bir bo‘lgan millatlarning orasiga nizo solmoqni kasb qilib olgan kimsalar yozayotgan havolalarga ko‘zingiz tushsa, ensangiz qotadi. Yo‘q, Qodiriy bobo kabi jahl otiga minasiz. Kimdir pismiqlarcha “Biz turkiy xalqlarning eng qadimiysimiz”, deya ko‘krak keradi, bunga o‘zicha rivoyat-u hikoyat va yana qandaydir manbalar keltiradi ham. Ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi va hokazo tomon ham qarab turmaydi. Shu tariqa ayanchli “poyga” boshlanadi.

Bu kabi havolalarga tarixdan chala xabardorlar aralashib, talashib-tortishishi (afsuslanarlisi, bahs bir zumda haqoratlarga aylanib ketishi) go‘rga, hatto tarixchi olimlar, o‘zini ziyoli qatlamga mansub deb da’vo qiladigan tuppa-tuzuk odamlar ham miyasiga emas, tiliga zo‘r beradi.

Yana yuz yil ortga, buyuk Qodiriyning jiddiyasiga qaytaylik. “Biz haqiqatni hayotdan oldik! Hammadan ilgari shaxs o‘zini tanisin, so‘ngra boshqani! Zero, “o‘zini bilmagan o‘zgani bilmas” so‘zi turmush onasining dard chekib tuqqan o‘g‘lidir”. Qodiriy ushbu achchiq so‘zlarni o‘sha paytda “Ittihodi islom” va “Ittihodi turk” shiorlari bilan maydonga chiqqan va endigina bir qadar qaddini tiklayotgan millatni qayta muhoraba maydonlariga chorlayotgan guruhlarga qarshi aytmoqda. Bundan “Qodiriy islomga yoki turkiy birlikka qarshi edi”, degan xulosa chiqmaydi. “Hammadan ilgari shaxs o‘zini tanisin”, deydi adib. O‘zlikni tanish esa ilm-ma’rifat orqali amalga oshadi. Ilmdan yiroq, ma’rifatdan bexabar qavm bir umr qullik zanjirini bo‘yniga osishga majbur bo‘ladi. Millat ilmli, ma’rifatli bo‘lib shakllanar ekan, vaqt kelib maydonga chiqishga qodir bo‘ladi.

Tarixga nazar tashlasak, o‘sha paytda yangi tuzilgan respublika boshqaruvidagi asosiy rahbarlik o‘rinlariga chetdan kelgan kadrlar tayinlanganini ko‘ramiz. Mahalliy noroziliklardan so‘ng, ularning aksari chaqirib olingan va o‘rniga boshqalar yuborilgan. Achinarlisi, aynan shu kelgindi kimsalar mahalliy millatlar orasiga nifoq solish, ularni bir-birlariga gij gijlashga bosh-qosh bo‘lgan. Qodiriyning g‘azabi ko‘proq shu kimsalarga va ularning nog‘oralariga o‘ynayotgan yerlik millat vakillariga qaratilgan. “Bo‘lib tashla va hukmronlik qil!” shiorini dasturulamal qilgan sovetlar ayni shu davrda “panislomizm”, “panturkizm” degan iboralarni o‘ylab topadi. Vaqt kelib bu ayblar jadid bobolarimizni yomonotliq qilishda rosa asqotadi. Vaholanki, Qodiriy va boshqa jadidlar o‘z vaqtida ayni shu bo‘linishlar – milliy ayirmachiliklardan xalqni ogoh qilgan edilar.

Qodiriy o‘z maqolasida bir davlat ichida yashayotgan turli millat vakillari orasiga nifoq solish – o‘z boshpanasiga o‘t qo‘yish bilan barobar ekanini ta’kidlaydi. Adib tashqi dushmandan ichki dushman xavfli ekani, tashqi dushman ko‘rinib kelsa, ichki dushman ko‘rinmas nishlari bilan ichdan zarba berishini afsus bilan qayd qiladiki, bu achchiq maslahatlar bugunimiz uchun ham g‘oyat dolzarbdir.

Ijtimoiy tarmoqlarga tanda qo‘yib, zo‘r berib o‘zlarining “qadimiy”ligi, qaysidir hudud yoki allomaga da’volarini bot-bot takrorlayotgan ayrim millatchi va ayirmachi, buzg‘unchi kimsalarga “Barchamiz Odam Ato va Momo Havodan tarqaganmiz, ayrimachilikni bas qilaylik, odam bo‘laylik!” deyish bilan ish bitmaydi. Aksincha, buyuk adibdan ulgi olib, uning qasamini qayta ichishimizga to‘g‘ri keladi. Toki, bunday g‘alamis kimsalarning dumi tugilib, nafaslari ichiga tushib ketgunicha, ularga qarshi g‘oyaviy kurashni bir zum ham to‘xtatmasligimiz kerak. Kerak emas – shart!

Ro‘zimboy HASAN

MUKOFOT



Kuni kecha “Renessans kino uyi”da Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot sovrindorlarini taqdirlashga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

Bu mukofot jahon adabiyotining mashhur va yetuk asarlarini o‘zbek tiliga o‘girgan, o‘zbek adabiyotining sara asarlarini xorijda targ‘ib qilayotgan fidoyi tarjimonlar mehnatiga munosib rag‘batdir.

“RAVZAT US-SAFO”DAN “AKA-UKA KARAMAZOVLAR”GACHA

Tanlovga jami 60 nafar tarjimondan ijodiy ishlar qabul qilindi. Bu tanlov nominatsiyasining har biriga o‘rta hisobda 10 nafardan nomzod to‘g‘ri keldi, deganidir.

Ko‘rikka topshirilgan asarlarga baho berish uchun xorijiy til mutaxassislari, adabiyotshunoslar va tarjimon-muharrirlardan iborat ekspertlar guruhi tuzildi. Asarlarni ko‘rib chiqishda O‘zbekiston davlat jahon tillari, Toshkent davlat sharqshunoslik, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetlari mutaxassislari, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari faol ishtirok etdi.

Ekspertlardan tashqari, tanlovga kelgan ijodiy ishlarni ko‘rib chiqish uchun qo‘shimcha ishchi guruh tashkil etildi. Uning bir qismi o‘zbek adabiyotidan xorijiy tillarga qilingan tarjimalarni, ikkinchi qismi jahon adabiyoti namunalaridan o‘zbek tiliga o‘girilgan asarlarni ko‘rib chiqdi.

Adabiyot va do‘stlik bayramiga aylanib ketgan taqdirlash marosimida Xalqaro mukofot g‘oliblarining har biri maxsus diplom, ko‘krak nishoni va bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravari, rag‘batlantiruvchi mukofot egalari esa faxriy yorliq va bazaviy hisoblash miqdorining 55 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Tanlov badiiy tarjima sohasining rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega, albatta. Qolaversa, tarjimashunoslik sohasi uchun yangidan yangi tadqiqot obyektlari yaratiladi, o‘zbek adabiyoti targ‘iboti ufqlari yanada kengayadi, yosh tarjimonlar mahoratini oshirish, sohaga qiziqtirish, xalqaro darajaga chiqishga undash uchun ham bu kabi tanlovlarning o‘rni beqiyos.

MUHAMMAD RIZO OGAHIY NOMIDAGI XALQARO MUKOFOT SOVRINDORLARI RO‘YXATI BILAN TANISHING:

I. O‘zbek adabiyotidan xorijiy tillarga tarjima

Said Mahmud Said Mubashir (Saudiya Arabistoni) – Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarini arab tiliga tarjima qilgani uchun;

Mixail Sinelnikov boshchiligidagi guruh (Rossiya) – 3 jildlik “Антология узбекской поэзии” tarjimasi uchun;

Shamenaz Bano (Hindiston) – Anvar Obidjonning “Meshpolvon” asarini hind tiliga o‘girgani uchun;

II. Jahon adabiyotidan o‘zbek tiliga tarjima

Ibrohim G‘afurov – Fyodor Dostoyevskiy, “Aka-uka Karamazovlar” (ruschadan);

Abdulla Sher – Anna Axmatova, “Oq tun” (ruschadan);

Tohir Qahhor – Xalil Rizo she’rlari (ozarbayjonchadan);

Nodirabegim Ibrohimova – Roald Dal, “Bahaybat va mehribon dev” (inglizchadan);

III. Rag‘batlantiruvchi mukofotlar

Vafo Fayzulloh – “Badiiy tarjima rivojiga qo‘shgan hissasi uchun”;

Vali Savash Yelok (Turkiya) – “O‘zbek adabiyotini xorijda faol targ‘ib qilgani uchun”;

Saidjalol Saidmurodov – “Umidli tarjimon” sifatida e’tirof etildi.

Biz barcha ijodkorlarni ulug‘ bobomiz nomi bilan atalgan mukofot bilan muborakbod etamiz!

“Jadid” gazetasi jamoasi

TARMOQLARDA NIMA GAP?

“Qorbobomiz oppoq...”

Ha, ko‘pchiligimiz bu she’rni ko‘ksimizga qo‘l bosib, “smirno” turib, berilib kuylaganmiz. Uning so‘zlari bitta-ikkitasi tushgan tishlarimiz orasidan kulgili tarzda chiqqan, “Qorbobo”ning sovg‘aga to‘la qopidan ko‘z uzmay aytgan paytlarimiz shirin xotira bo‘lib qolgan. Kecha shu o‘ylar bilan uyga qaytayotib, g‘alati holatga duch keldim...



Yo‘l yoqasida o‘n-o‘n besh yoshlar chamasidagi bolalarning qo‘shig‘i beixtiyor quloqqa chalindi. Yangi yil haqida ekan. Ilk qarashda oddiy bayram shukuhidek tuyuladi. Ammo tinglagan sari ko‘nglim behuzur bo‘ldi. Bu xirgoyi biz bolalikda Qorboboga atab, ko‘zlarimiz yonib aytgan samimiy she’rlarga sira o‘xshamasdi. Undagi quvonch o‘rnini masxara va nafrat egallagandi.

To‘g‘ri, avval ham shunday gap-so‘zlar bo‘lgan: “Yangi yil unday, Qorbobo bunday…” Ilk bor eshitganimda bolalikning beg‘ubor zavqi, kutilmagan sovg‘alar, mahalla-ko‘y jam bo‘lib nishonlaydigan huzur-baxsh kechalarga nahotki butunlay chek qo‘yilsa, deb yuragimni g‘ashlik qoplagandi. Keyin bu munosabat sabablarini o‘ylab, surishtira boshladim. Xulosam shu bo‘ldiki: Yangi yilni nishonlashning hech qanday aybi yo‘q. Bu qandaydir nojoiz amal emas, inson umrining kichik bir sarhisob oni ekan. Ulamolar ham shu ma’noda gapirib, fikrlarini turli manbalar orqali asoslab bergandi. Demak, muammo bayramda emas, unga bo‘lgan o‘ta shaxsiy munosabatda... Ammo o‘rtada bir nozik chegara borki, bu boshqalar oshiga tuproq sochmaslik bilan bog‘liq.

Kechagi bolalar esa hali dunyoning oq-qorasini to‘la anglab ulgurmagan norasidalar edi. Bu yoshda bola ko‘proq kattalarning so‘zi, muhitning ta’siri bilan yashaydi. Demak, ularning tilidagi “sovuqlik” o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas.

O‘ylab ko‘ring, dekabr kirishi bilan sinflarda bir xil gap bo‘ladi: “Xonani qanday bezaymiz, kim qanday sovg‘a oladi? Tort ham bo‘ladimi? Yangi yilga rejalar...”

Soat o‘n ikki bo‘lishi bilan shodon-shodon qiyqiriqlar, mushaklar bazmi osmonni tutadi. Uydagi bayromona tuzalgan dasturxon, ekranlardagi quvonchli tabriklarni aytmasa ham bo‘ladi. Ana shunday paytda “Bizga mumkin emas” degan gapni eshitgan bola o‘zini jamiyatdan uzilganday, shodlikdan mahrum etilganday, qo‘lidan o‘yinchog‘i tortib olinganday his qilmaydimi? Buning ortidan ruhiy jarohatlar kelib chiqmaydimi?

Qo‘ying, bola mo‘jizalarga ishonsin. Axir bolalik – ishonch va orzu-umidlar davri. Hayotning o‘zi mo‘jiza emasmi? Qo‘ying, u “yolg‘ondakam Qorbobo”ni kutsin, (u aytgani uchun bo‘lsa ham) yaxshiroq bo‘lishga harakat qilsin. Darsini qilishga, xulq-atvorini tuzatishga, kattalarga quloq solishga, kichiklarga mehribon bo‘lishga intilsin. Chunki bola uchun Qorbobo shunchaki obraz emas, u yaxshilik ramzidir.

Qo‘ying, sovg‘a kutib, o‘n ikkiga yaqin yo‘lga tikilsin. Quvonchdan yuragi hapqirsin. Axir taqvim shundoq ham “Bayramdan boshqa kunlar”ga to‘la. Uning bayramlari bittaga bo‘lsa ham ko‘paysin. Tabrik bahona betob qo‘shni otaxon-u onaxonlarning eshigini qoqsin, uzoq qarindoshlarning holidan xabar olsin. Bir dasturxon atrofida yig‘ilgan oila, quvonchdan yonib turgan ko‘zlar – jamiyatni birlashtiradigan eng buyuk manzara emasmi?

Xullas, bolalarga serzavq bolalikni qaytarib bering! Qalblariga sovuqchilik emas, nur soching. Ularga bir olam orzu, mo‘jizaviy kecha, quvonchli umrni baxshida eting! Chunki baxtli bolalik baxtli kelajak uchun juda muhim!

Otabek RAHIM
Facebook

TILBILIM

ALP ER TO‘NGANING “TO‘NGA”SI NIMA?



Afrosiyob Alp Er To‘nga deb atalishini bilasiz. U turkiy xalqlarning qadimiy qahramoni. Ming yillar davomida shon-shuhrat uning izidan yuradi. Xo‘sh, bu buyuk qahramonning nomidagi “to‘nga” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

Mahmud Koshg‘ariy Devonining 3-tomida shunday izoh borki, bizga Alp Er To‘nga nomining ma’nosi haqida yetarlicha ma’lumot beradi:

“toңa – yo‘lbars jinsidan bo‘lgan bir xil hayvon. U filning kushandasidir. Bu so‘zning asosiy ma’nosi shudir. Lekin bu so‘z turklarda ma’nosi o‘zgargan holda qo‘llanadi. Bu so‘z ko‘pincha odamlarga laqab o‘rnida ishlatiladi. Chunonchi toңaxon, toңa tәgin va shu kabilar. Turklarning ulug‘ xoni Afrosiyobni Toңa alp ər deb atar edilar. Yo‘lbars kabi kuchli, bahodir odam demakdir”.

Eshqobil SHUKUR

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Otabek Bakirov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 731
Shundan:
Kirill yozuvida – 7 101
Lotin yozuvida – 11 630
Media kuzatuvchilar – 74 732
Buyurtma: G – 1240.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00
Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz